

82.3
Q.20

JAHON XALQLARI ERTAKLARI

• Qanoatli chumoli •



2-
nashr

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

1284

JAHON XALQLARI ERTAKLARI

Qanoatli chumoli

Qayta nashr



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIF VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIROHQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent
«Akademik»
2016 yil
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIF VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIROHQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K: 398.21 (100)
KBR: 82.3(0)
Q 20

Q 20 Qanoatli chumoi [Matn]: jahon xalqlari ertaklari. (qayta nashr) / nashrga tayyorlovchi va tarjimon A. Sharopov. - Toshkent: Akademnashr, 2016. - 144 b.

ISBN 978-9943-995-64-2

UO'K: 398.21 (100)
KBR: 82.3(0)

Rassom:
Farrux Iskandarov

Ma'lumki, ertaklar o'zi mansub bo'lgan xalqning dunyogarashi, turmush tarzi, urf-odat va an'analarni namoyon etadi. Shu bois ham boshqa xalqlarning ertaklarini o'qiyotgan o'quvchi o'zi uchun umuqo'lingizdagi jahonning turli xalqlari eng sara ertaklaridan tuzilgan kitob ham aziz bolajonlarimizning sodiq yo'ldoshiga aylanadi degan umiddamiz. Zero, ertaklarning farzand tarbiyasidagi, inson kamolotidagi beqiyos o'rni hayotda o'z isbotini topgan haqiqatdir.

Nashrga tayyorlovchi va tarjimon:
Abdulla Sharopov

ISBN 978-9943-995-64-2

© «Akademnashr», 2016

QAYRAG'OCH, TOSHBAGA VA YO'LBAR

(xitoy xalq ertagi)

adim o'tgan zamonda allaqaysi o'lkada goyalari ko'kka bo'y cho'zgan tog' bo'lgan ekan. Tog' qoyalaridan biridagi zim-zimiston g'orda katta yo'lbars yasharkan: terisi yo'l-yo'l, ko'zlari qavariq, peshonasida oq qashqasi bor ekan. Shu qadar kuchli ekan-ki, hech bir jonzor unga bas kelolmas ekan. Yo'lbars o'kirganida yer silkinar, tog'lar titrarkan. Tog' etagidagi tubsiz moviy girdobda esa ulkan toshbaga yasharkan. U jahl bilan toshkotasini suvga urganida to'lqinlar paydo bo'lib hammamni vahshatga solarkan. Agar bo'yini cho'zadigan bo'lsa, yanada kattarib, naqd bir chiyandan ham ortib ketarkan. Tog'ning qoq o'rtasida bir necha o'n chyan balandlikdagi qayrag'och o'sgan bo'lib, qiyshayib, mayshib ketgan ekan, chunki ming yildan beri yasharkan-da. Qari qayrag'och bor kuchi bilan o'z shoxlarini atrofga yoyishga tirisharkan, negaki yonidagi yosh daraxtlarning unib-o'sishidan qo'rqarkan.

Yo'lbars tog'ning eng baland cho'qqisida, toshbaga chuqur o'pgonda yashashiga qaramay, ular o'zaro juda qalin do'st ekan. Bir-ikki kun ko'rishmay qolishsa g'amga botib, uchinchi kuni bir-biridan xabar olishga shoshisharkan. Dam yo'lbars pastga tushsa, dam toshbaga tepaga ko'tarilarikan. Har safar keksa qayrag'och yonidan o'tayotib undan hol-ahvol so'rashni ham kanda qilishmas ekan. Bunga javoban qayrag'och:

¹ Chyan - uzunlik o'lchov birligi, 3,2 metr.

— U-u, e-e, — deb shovqin solar, ammo ikki do'stga pin-hona hasadi kelarkan.

Unga yo'lbarsning qudrati, toshbagaqning kuchi yo-qingiramas, ayniqsa, ular o'rtasidagi mustahkam do'stlikdan ichi kuyarkan. U anchadan beri aytilmas do'stlar-ning orasiga nifoq solishni rejalashtirar, bu ishini qanday uddalasam ekan deb o'ylarkan. Hadeb o'ylayverganidan yarmini qurib qorayib qolibdi, ignalari sarg'ayib ketibdi.

Bir kuni toshbaga do'stini yo'qlab tog' cho'qqisiga yo'l olibdi. Qayrag'ochning oldiga yetib borib endi sa-lomlashmoqchi bo'lgan ekan, qayrag'och uni savolga tutibdi:

— Yo'l bo'lsin, toshbagaqjon, qayoqqa ketyapsan?

— Yo'lbars og'amni ko'rgani ketyapman, — deb javob beribdi toshbaga.

Qayrag'och og'ir xo'rsinibdi. Toshbaga hayron bo'lib:

— Nega xo'rsinasan, qayrag'och og'a? — deb so'rabdi.

Qayrag'och yana bir bor xo'rsinib:

— Yo'lbarsning oldiga borishni maslahat bermagan bo'lardim, — debdi.

Toshbaga avvalgidan battarroq hayron bo'lib so'rabdi:

— Nega bunday deypasan?

— Kecha tog' cho'qqisida u seni qanday qatig' haqorat-laganini bilsang edi, — deb pichirlabdi qayrag'och, — bu so'zlarni eshitguncha quloqlarim kar bo'lsa yaxshiydi.

— Nima deb haqorat qilganini bilsam bo'lardimi? — so'rabdi toshbaga tog'ati toq bo'lib.

— Aytishga-ku aytaman, lekin jahling chiqib ket-masmikin, — yanada pastroq ovozda pichirlab debdi qayrag'och. — U seni ibaliq dedi, aytishicha, yoniga bo-rishing bilan toshkosangni g'ajib, jigingingni yamlamay yutarmish.

Bu gapni eshitgan toshbaga jahl otiga minib o'zining girdobi tomon yo'l olibdi.

Yo'lbars esa uni g'orda kuta-kuta charchabdi va: «Nega toshbagaqjon kelmayptiykin-a?» — deb so'zlanibdi.

Oxiri uyusidan chiqib atrofga qarabdi: toshbaga hech qayerda ko'rinmasmish. «O'zim borib xabar ola qolay», — degan qarorga kelib tog'dan pastga tusha boshlabdi. Yo'lga qayrag'och undan so'rabdi:

— Yo'l bo'lsin, yo'lbars do'stim?

Yo'lbars:

— Toshbagaovorni kutdim-kutdim, kelmagach, o'zim uning oldiga borishga qaror qildim, — deb javob beribdi.

Qayrag'och og'ir xo'rsinibdi.

— Nega xo'rsinyapsan, qayrag'och og'a? — hayron bo'lib so'rabdi yo'lbars.

Qayrag'och yana bir bor og'ir xo'rsinib, javob beribdi:

— Senga toshbagaqning oldiga borishni maslahat ber-magan bo'lardim.

Yo'lbars avvalgidan ham hayron bo'lib:

— Nega unday deypasan? — deb so'rabdi.

— Eh, birpas oldin u seni shu yerda qanday haqorat qilganini bilsang edi, — pichirlabdi qayrag'och. — Bu so'zlarni eshitguncha quloqlarim kar bo'lsa bo'lmasmidi.

— Xo'sh, qanday haqorat qildi? — deb so'rabdi yo'lbars bezovtalanib.

Shunda qayrag'och ovozini yanada pasaytirib javob qaytaribdi:

— U seni palid yo'lbarsvachecha dedi. Aytishicha, bor-gan zahoting tishlari bilan tirnoqlaringni g'ajirmish, oyog'ingdan suvga tortib seni cho'ktirib yuborarmish.

Bu so'zlarni eshitib yo'lbarsning jahl chiqibdi, dumi-ni silkitganicha ortiga qaytib ketibdi.

Shu voqeadan keyin ko'p vaqt o'tibdi, yo'lbars bi-lan toshbaga umuman bir-biri bilan yuzko'rmas bo'lib ketishibdi. Yo'lbars juda qiziqqon ekan. Toshbagaqni o'ylashi bilan gahr-u g'azabga to'larkan. Oxiri chidol-may g'ordan sakrab chiqibdi va girdob tomon yo'l olibdi. Qayrag'och esa sevinchdan qichqirib yuboray debdi. Yo'lbars girdob bo'yiga borib, og'zidan bodi kirib-shodi chiqib baqira ketibdi.

— Ko'rsatib qo'yaman senga, toshbagavachcha, hali mening tirnoqlarimni g'ajib, oyog'imdan girdobga tadtigan bo'lib qoldingmi?

Shu payt toshbaga ham suvdan chiqib, uni haqoratlay ketibdi:

— Men senga ko'rsatib qo'yaman, palid yo'lbarsvachcha, sen hali toshkosamni g'ajib, jigirimni yeydigan bo'ldingmi?

Ular bir-birini haqoratlay-haqoratlay shu darajada qizishib ketishibdi, oxiri ish olishishga borib yetibdi. Birortasining ham kallasiga haqiqatni uydirmadan farqlash fikri kelmabdi. Toshbaga yo'lbarsning oyog'idan tishlab girdobga tortibdi. Yo'lbars esa so'yloq tishlarini toshbaganing toshkosasiga sanchibdi, o'lsa ham qo'yib yubormaslikka ahd qilibdi. Oradan biroz vaqt o'tib toshbaga jon beribdi, yo'lbars suvda cho'kib o'libdi.

Ertasi kuni tongda bir bolakay girdobning yonidan o'tib ketayotib ko'rsaki, suv yuzida yo'lbars bilan toshbaganing jonsiz tanasi suzib yurganmish. Bolakay odamlarni chaqiribdi, ular yo'lbars bilan toshbagani qishloqqa olib ketishga ahd qilibdilar. Rosa talashib-tortishibdilar — yo'lbars bilan toshbagani pishirish uchun shuncha o'tinni qayerdan olish mumkin, axir? Buni eshitgan bolakay bolta va arra ko'targan odamlarni tog'ga boshlabdi. Ular tog' o'rtasiga, qayrag'och turgan joyga, yetib boribdilar. Bolakay qayrag'ochga qarab debdi:

— Bu qayrag'och kamida ming yillik bo'lsa keragov. Allaqachon yarmi qurib ham qolibdi. O'zi ham o'smaydi, yosh daraxtlarning ham o'sishiga yo'l qo'ymaydi. Nimasiga achinish mumkin buning? Shuni kessak, gulxan uchun o'tin tap-tayyor-da.

Odamlar shu zahoti ishga kirishibdilar va keksa qayrag'ochni qulatibdilar.

YOMONLIK QILIB YAKSHILIK KUTMA

(kabardn xalq ertagi)

Kunlarning birida hayvonlar shohi — sher kasal bo'lib qolibdi. Ertayu kech o'zining g'orida yo'tib og'riqdan tog'larni zirillatib o'kiraveribdi.

Hamma hayvonlar bemor shohdan xabar olgani kelibdi. Faqat tulki biror marta ham kelmabdi. U bu paytda juda muhim ish — tovuqlardan o'lpon yig'ish bilan band ekan.

Tulking kelmaganini sezgan bo'ri sherga:

— O ulug' hukmdor, sening sog'lig'ingni o'ylab hammaning joni halak, birgina tulki senga o'lim tilayotganiga o'xshaydi, o'rningga o'zi hayvonlarga bosh bo'lmoqchi, shokilli-da, — debdi.

Bo'riining gaplarini eshitib qolgan bo'rsiq bu haqda tulkini ogohlantiribdi.

Ertasi kuni endi quyosh ufqdan bosh ko'targanida tulki kasal sherning g'origa tashrif buyuribdi. Sher unga ko'zi tushgani zahoti:

— Eh, makkor tulki, hali men haqinda g'amxo'rliking shu bo'ldimi — bir tukung g'ilt etmaydi-ya! — deb o'kiribdi.

Tulki boshini quyi solib tilyog'lamalik bilan javob beribdi:

— O hayvonlar shohi, umring ziyoda bo'lsin, tez kunlarda oyovga turib chopqillab ketgin! Bekorga mendan, sodiq qulingdan, jahling chiyapti! Barcha sening atro-fingda o'tirib olib oh-vohdan nariga o'tmagan mahalda men eng zo'r tabiblarni qidirib topdim va sening dar-dingga nima davo bo'lishini bilib keldim.

Sher jahldan tushibdi.

– Xo'sh, qanaga dori menga yordam berishi mumkin ekan? – so'rabdi u.

– Seni davolashi mumkin bo'lgan yagona dori bo'ri-ning panjasi ekan.

Sher bo'ri-ning panjasini kesib olishlarini buyuribdi. Shoh amri vojib. Bo'ri bir panjasidan ayrilib uyiga ravona bo'libdi. Yo'lga unga tulki yo'liqibdi.

– Ey bo'z bo'ri, senga nima qildi? – hech narsadan xabari yo'qdek muloyimlik bilan so'rabdi tulki.

– Qilmishimga yarasha jazoyimni oldim, – debdi bo'ri. – Bekorga: «Yomonlik qilib yaxshilik kutma», – deb aytishmagan ekan.

UCH HO'KIZ

(turkman xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamon-da bir dehqonning uch ho'kizi bo'lib, biri qora, ikkinchisi qo'ng'ir, uchinchisi ola ekan. Bir kuni ho'kizlar:

– Agar xo'jayinnikida qoladigan bo'lsak, – deb o'ylashibdi, – tez orada bo'yinimizga bo'yinturug osadi va umrimizning oxirigacha boshimiz mashaqqatli mehnatdan chiqmaydi. Kelinglar, o'rmonga qochib ketamiz. U yerda yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ortimizda bo'ladi.

Shu tariqa ho'kizlar xo'jayinnikidan o'rmonga qochibdi. Lekin ozodlik nashidasini uzoq vaqt surolmabdi. Ularga o'rmonda yashaydigan o'nta sher hamla qilibdi. Ho'kizlar ham bo'sh kelishmabdi. Baland bir joyga chiqib, bir-biriga yelkama-yelka bo'lib, shoxlarini o'qtabdi turib olibdi. Sherlar ularga yaqinlashishga jur'at etisholmabdi. Shunda bir aqlli sher o'rtoqlariga debdi:

– Bu yerda ochlikdan azob chekishdan ne ma'no? Yaxshisi, hammanglar ovga boringlar, men o'zim yolg'iz qolib ho'kizlarni bir yoqli qilishga urinib ko'raman.

To'g'izta sher o'z yo'liga ravona bo'libdi, o'ninchi, eng ayyor sher quyug o'tlar orasiga yashirilib yotibdi. Ho'kizlar o'tlab yurib sherga yo'liqibdi va hayratga tushibdi.

– Hali, bizni poylayapsanmi, bechora? O'zing o'ylab ko'r, bizga o'nta sherining kuchi yetmagan ekan, nahotki, mendan qo'rgsak?

— Ov qilishga yo'l bo'lsin menga! — ming'irlabdi ayyor sher. — O'z og'alarim bo'lmish sherlar meni quvib soldilar. Aytishlaricha, men eng no'noq va notavon sher-mishman. Agar jirkannasanglar, men badbaxtni o'z safigizga qo'shib oling, sizlar bilan og'a-ini tutinishga ijozat eting.

Bu taklifdan ho'kizlarning boshi osmonga yetibdi. Sherdan og'ang bo'lgani qanday soz! Ho'kizlar avvalgidan ham yaxshiroq yashay boshladilar. Endi ular bir-biriga yaqin emas, yoyilib o'tlarkanlar. Axir ularni sher og'alari himoya qilardi-da. Sher esa qulay fursatni kutib yuraveribdi.

Bir kuni u ola va qo'ng'ir ho'kizni yoniga chorlab uzoqda o'tlab yurgan qora ho'kizni ko'rsatib debdi:

— Og'avnilar, qaranglar, qora ho'kizning burni ko'tarilib qolibdi-ku. Bizni nazariga ilmay, manmansirab o'tlashini ko'ring. Uning aqlini kiritib qo'yadigan vaqt kelmadimikin?

— To'g'ri aytasan, sher og'a. Qora ho'kiz rostdan ham manmansirab ketdi. Borib uning popugini pasaytirib qo'y, — deyishibdi ho'kizlar.

Sher qora ho'kizga hujum qilibdi va uni burda-burda aylabdi.

Oradan bir necha kun o'tib sher ola ho'kizning yoniga kelib:

— Eh, birodar! — debdi g'amgin ovozda. — Qo'ng'ir ho'kizni qara. U o'zini xuddi qora ho'kizdek tutyapti-ku, oldingda yurib eng barra o'tlarni yeb ketyapti. Uning ham aqlini kiritib qo'yish vaqti keldiyov.

Ola ho'kizning roziligini olgan sher qo'ng'ir ho'kizga hujum qilibdi va uni g'ajib tashlabdi. Oradan bir muncha vaqt o'tib, qorni ochgach, ola ho'kizning oldiga kelib: — Qani, tentak do'stim, beri kel-chi, men seni nimtalar, go'shtingdan kabob qilib yeyman, — debdi.

— Og'ayniyon, meni jazolashga qanday hadding sig'adi, axir? — zorlanibdi ola ho'kiz. — Men doim qoi-

shdan chiqmagan holda o'tlasam, hech qachon bironing oldiga tushmasam. Qolaversa, og'a-inilar bir-birini yeyishi mumkinmi?

Ahmogasan, do'stim, ahmogasan! — deb kulibdi sher. — O'zing o'yla, hech zamonda etxo'r hayvon o'txo'r hayvon bilan og'a-ini bo'lishi mumkinmi? Buning ustiga, men hayvonlar shohi, sherlar ichidagi eng zo'r ovchi bo'lsam! Qapimga shubha qilmasang kerak: o'nta sher uddalohmagan ishini bir o'zim bajardim — uchta ho'kizni yeb tugatdim.

Ummam, oxirgi so'zlarni eshitishga ho'kiz ulgur-mabdi ham.

OLMA, PISH, OG'ZIMGA TUSH

(moldovan xalq ertagi)

 adim o'tgan zamonda bir dangasa kishi yashagan ekan, shu darajada tanbal ekan, harakat-siz yotaverganidan mog'or bosib ketibdi. Olma pishib og'ziga tushishini, uni ham kimdir chaynab berishini istarkan. Tabiiyki, dangasalik qashshoqlikni yetaklab keladi. Ahvoli juda tanglashib qolganidan so'ng: «Mehribon sehrigarni qidirib topmasam bo'lmaydi, shekilli; zora, nasibamni ulug' qilsa, qo'limni sovuq suvga urmasdan katta davlatga ega chiqsam», — deb o'ylabdi. To'rvaxaltasini yelkasiga ilib, baxt axtarib yo'lga tushibdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. O'rmondan o'tib ketayotib ozib-to'zib ketgan, boshida bir tuki yo'q bo'riga yo'lliqibdi.

— Yo'l bo'lsin, ey saxovatli zot, qayerga ketyapsan? — deb so'rabdi bo'ri.

— Mehribon sehrigarni qidirib ketyapman, zora, menga baxtli bo'lish yo'lini o'rgatsa, — deb javob beribdi yalqov.

— Mehribon sehrigarni ko'rsang, undan so'rab boqchi, sochim qaytadan o'sib chiqishi uchun nima qilsam bo'larkin.

— Mayli, bo'rivo'y. Sen uchun so'raganim bo'lsin.

Yalqov yo'lida davom etibdi. Yurib-yurib barglari sarg'ayib so'la boshlagan tokning oldidan chiqib qolibdi.

— Yo'l bo'lsin, ey karamli zot, qayerga ketyapsan? — deb so'rabdi tok.

— Mehribon sehrigarning oldiga.

— Unda nima ishing bor?

— Undan baxtli bo'lish sirlarini, mehnat qilmasdan shahona yashash yo'llarini so'ramoqchiman.

Mehrigardan bir surishtirib ko'r-chi, yangidan barg yashab uchun nima qilsam ekan.

— Mayli, sen uchun so'raganim bo'lsin, — debdi yalqov yo'lida davom etibdi.

Yurib-yurib bir daryo sohilidan chiqib qolibdi. Qarasam, suvda jig'ildoni juda kattarib ketgan baliq suzib yuribdi.

— Yaqinroq kel, ey saxovatpesha inson, — debdi baliq.

Yalqov uning oldiga boribdi.

— Yo'l bo'lsin, qayogqa ketyapsan? — deb so'rabdi baliq. Mehribon sehrigarning oldiga.

— Nega?

— O'z baxtimni qidirib ketyapman, sehrigardan bundan keyin qanday yashash kerakligini bilmogchiman.

Agar sehrigarning oldiga borsang, undan so'ra-chi, jig'ildonim kundan kunga kattarib ketmoqda, bu baxtdan qanday qutulsam bo'larkin.

— Yaxshi, so'raganim bo'lsin.

Yalqov yo'lida davom etibdi. Yurib-yurib o'rmondagi sayhonlik o'rtasida bir buloqning oldidan chiqib qolibdi. Buloq yopasida oppoq kiyingan go'zal bir qiz o'tirgan edi.

— Kim bo'lasan, ey mehribon inson? — deb so'rabdi qiz.

— Bir hechora darbadarman, — debdi yalqov.

— Qayogqa ketyapsan?

— Mehribon sehrigarni qidirib ketyapman.

— Sen qidirgan shaxs men bo'lamman. Bu yerga kelguncha ko'p yo'l yurdingmi?

— Ichi, nimasini aytasan, ko'p ham gapim!

— Yo'lida kimlarni ko'rding?

— Birinchi bo'lib sochi to'kilib bitgan bo'rini ko'rdim.

— U menga nima dedi?

– Sening yoningga borayotganini eshitib, sochlari qaytadan o'sib chiqishi uchun nima qilishi kerakligini so'rashini tayinladi.

– Unga borib ayt: dangasa va tanbal kimsaning yuragini yesin, shunda sochlari qaytadan o'sib chiqadi. Yana kimni uchratding?

– Yana barglari sar'ayib govjirayotgan tokni uchratdim. U sendan nima qilsa yangitdan barg yozishi mumkinligini so'rashini tayinladi.

– Unga borib ayt: tokning ildizlari ostiga bir zamonlar tilla to'la xum ko'mishgan. Kimdir o'sha xumni qazib olsa, tok yana yashnab ketadi. Yana kimni uchratding?

– Jig'ildoni juda kattarib ketgan baliqni uchratdim. U sendan bu darddan qutulish uchun nima qilishi kerakligini so'rashini iltimos qildi.

– Uning jig'ildoni qimmatbaho toshlar bilan to'lib ketgan. Kimdir jig'ildonini kesib, o'sha toshlarni chiqarib olsa, baliq darddan qutuladi-qo'yadi.

– Unga so'zlarini yetkazaman.

– Endi ortingga qayt.

– Bu nima deganing, axir? Men bu yerga baxtimni qidirib kelganman-ku.

– Kelgan yo'ling bilan ortingga qayt. Agar yelkangda ko'tarib yurganing bosh bo'lsa, baxti hayot kechirasan, aksincha bo'lsa, o'zingdan o'pkala.

Yalqov iziga qaytibdi. Yurib-yurib baliqning oldiga yetib kelibdi.

– Sehrigarni topdingmi, u senga nima dedi? – deb so'rabdi baliq.

– Aytishicha, jig'ildoning qimmatbaho toshlar bilan to'la ekan, kimdir ularni chiqarib olsa, darddan butunlay qutularkansan, – deb javob beribdi yalqov.

– Ey rahmdil inson, iltimos, mendan xizmatini aya-ma, jig'ildonini kesib qimmatbaho toshlarni chiqar, mukofot sifatida ularni o'zingga olishing mumkin, – deb zorlanibdi baliq.

Yo'q, – deb javob beribdi yalqov, – yo'limdan qolmay, meni yo'lda baxtim kutayapti. Sening toshlaringisiz ham barcha narsaga ega bo'lamen.

Shunday deb yalqov yana yo'lga tushibdi. Yurib-yurib to'kning oldiga yetib boribdi.

Xo'jah, qalay, mehribon zot, sehrigarni topoldingmi? – deb so'rabdi tok.

Ha, topdim, – debdi yalqov.

U qanday maslahat berdi?

Aytishicha, sening ildizing ostiga tilla to'la xum bo'lingan ekan. U tomir otib palak yozishingga xalaqit berayotgan ekan.

U holda marhamat qilib o'sha xumni kaviab ol, ichidagi otlinlari ham seniki. Menga ham nafig tegadi, o'zing ham quruq qolmayсан.

Yo'q, – debdi yalqov, – ovora bo'lib yer qazib yuramanmi, meni yo'lda baxtim kutayapti, sening otlinlaring-ning ham hamma narsam bo'ladi.

Shunday deb yana yo'lida davom etibdi. Yurib-yurib to'kning oldiga yetib boribdi.

Xo'jah, sehrigarni ko'rdingmi? – deb so'rabdi bo'ri.

Ko'rdim, – debdi yalqov.

U nima dedi, sochini qanday qilib o'stirsam bo'lar-kan?

Aytishicha, buning uchun dangasa va tanbal kimsaning yuragini yeyishing kerak emish.

Yana nimalarni ko'rding, nimalarni eshitding, qayerlarda bo'lding?

Ey, asli so'rama, ko'p narsalarni ko'rdim. Sar'ayib govjirayotgan tokni uchratdim. Tilla to'la xumcha uning o'rtasiga to'sqinlik qilayotgan ekan. U mendan xumcha qazib ol va otlinlarga ega bo'l dedi. Lekin uning otlinlarini boshingga uramanmi? Yo'lida meni baxtim kutib turgan bo'lsa. Shusiz ham barcha narsaga ega bo'lamen-ku.

Qiz Nafise kimni ko'rding?

Uzbekiston Respublikasi
O'qituvchi Maktabi Tashkent viloyati
Pedagogika instituti

Uzbekiston Respublikasi
O'qituvchi Maktabi Tashkent viloyati
Pedagogika instituti
Axborot Resurs Markazi
1. Filial

– Jig'ldoni qimmatbaho toshlarga to'lgan baliqni uchratdim. U mendan jig'ldonimni kesib, o'sha toshlarni chiqarib ol deb iltimos qildi. Shoshib turganim bois uning gapiga quloq solmay yo'linda davom etdim.

Bo'ri o'ylab-o'ylab, dangasa insonning aqli ham to'ntoq bo'ladi degan xulosaga kelibdi.

– Sendan tanbalroq va ahmogroq birorta kimsani uchratmaganman, – debdi unga bo'ri. – Xummi qazishga erinibsan, qimmatbaho toshlarni chiqarib olishga qo'ling bormabdi. Shuncha boylik bilan umringning oxirigacha beg'am-betashvish yashashing mumkin edi-ya.

Shu so'zlarni aytib bo'ri yalqovga tashlanibdi va uni yeb qo'yibdi.

1284



OLMA, PISH, OG'ZIMGA TUSH



VALMOG'IZ KAMPIR



90 123 58 34

YALMOG'IZ KAMPIR

(rus xalq ertagi)

Qadim o'tgan zamonda er-xotin yashagan ekan, ularning bitta-yu bitta gizi bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun xotin dardga chalinib vafot etibdi. Er jama qayg'uribdi, oxiri boshqa xotinga uylanishga majbur bo'libdi. O'gay ona qizni sira yoqtirmas, unga tinim-ma masb berar, urar, so'kar, xo'rlagani-xo'rlagan ekan. Bir safar otasi qayog'qadir ketganida o'gay ona qizga: — Opasiniqiga borib, undan igna-ip olib kel — senga keraklik beraman, — debdi.

O'gay onaning opasi qoqsuyak jodugar ekan. Qizaloq o'gay onasining gapini qaytarishga botinolmabdi va yo'lga tushibdi. Lekin avval o'zining xolasiniqiga kirib olishga qaror qilibdi.

— Halom, xolajoni! — debdi.

— Halom, jigargo'sham, tinchlikmi? — deb so'rabdi xolajoni.

— O'gay onam opasiniqiga igna-ip keltirishga yubordi menga ko'ylak tikib berarmish, — debdi qizcha.

— Yaxshi, j'yanginam, — debdi xolasi. — Mana senga tasma, yog', non va go'sht. Yodingda tut: qayrag'och yuz-laringga shoxlari bilan savalaydi — sen uni tasma bilan ting'lab qo'y; darvoza g'ijirlab qarsillab yo'lingni to'sadi — sen uning oshiq-moshig'iga yog' surkab qo'y; seni ilay talashga urinadi — sen ularga non tashla; mus-huk ko'zlariningga chang solmoqchi bo'ladi — sen unga go'sht ber.

Qizaloq xolasiga minnatdorchilik bildiribdi va yo'lga tushibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib o'rmonga



QANOATLI CHUMOLI

yetib kelibdi. Qarasa, baland ihota ortida tovuq oyoqli, qo'chqor boshi yog'och kulba turganmish. Kulba ichida qoqsuyak yalmog'iz kampir kanopdan kiyim tikib o'tirganmish.

— Salom, xolajon! — debdi qizcha.

— Salom, jiyancham! — debdi yalmog'iz kampir. — Senga nima kerak?

— Meni o'gay onam igna-ip olib kel deb yubordi — men ga kiyim tikib beramish.

— Juda soz, jiyancham, senga igna-ip beraman, hozircha menga qarashib yubor.

Qizaloq oyna yonida o'tirib yalmog'izning ishini davom ettiribdi. Yalmog'iz kampir kulbadan chiqib, xizmatkoriga:

— Men hozir uxlashga yotaman, sen borib hammomni isit va jiyanchamni yaxshilab cho'miltir. Uxlab turganimdan keyin uni yamlamay yutaman! — deb buyuribdi.

Bu so'zlar qizchani gulog'iga chalinibdi va qo'rquvdan qilt etmay o'tiraveribdi. Yalmog'iz kampir ketishi bilan xizmatkoriga:

— Azizim, o'tinaman sendan, o'choqqa qancha o'tin qalasang, shuncha ustiga suv sep, — deb yalinibdi va unga dastro'mol sovg'a qilibdi.

Xizmatkor hammomni suvga bostirib yuboribdi. Yalmog'iz kampir uyg'onib, oynaning oldiga kelibdi va so'rabdi:

— Tikyapsanmi, azizim, tikyapsanmi?

— Tikyapman, xolajon, tikyapman, — deb javob qaytaribdi qizcha.

Yalmog'iz kampir yana uxlashga yotibdi. Qizcha mushukka go'sht berib:

— Mushuk og'a, menga bu yerdan qanday qochishni o'rgat, — debdi.

— Stol ustida sochiq bilan taroq turibdi, ularni ol va tezroq juftakni rostla, aks holda, jodugar seni sog'

o'tirmaydi! Yalmog'iz ortingdan quvadi — gulog'ingni tizga qo'yib tingla. Jodugar senga yetay-yetay deganida harqat tashla — qalin o'rmon paydo bo'ladi. U o'rmonni kuchi o'tguncha ancha joyga yetib borasan. Agar yana o'tingdan quvayotganini eshitasang, sochiqni tashla — shovqin va keng daryo paydo bo'ladi, — debdi mushuk.

Habnat senga, mushuk og'al — debdi qizaloq va sochiq bilan taroqni olib qochib ketibdi. Itlar unga tashlanib tashlashga uringan ekan, qizcha ularni non bilan siyladi. Itlar uni qo'yib yuborishibdi. Darvoza o'tib tashlab yo'lni bekitmoqchi bo'lgan ekan, qizcha uning sochiq mushug'iga yog' surkabdi. Darvoza uni o'tkazib yuboribdi. Qayrag'och shovqin solib qizchani yuz-beriga savalamoqchi bo'lgan ekan, qizcha unga tasma bog'lab qo'yibdi. Qayrag'och uni o'tkazib yuboribdi. Qizcha bor kuchi bilan qochishga tushibdi.

U paytda mushuk oyna ostiga o'tirib, qizchani gulog'iga kiyim tikishga kirishibdi. Ming chiransa ham unga o'shamasmish. Yalmog'iz kampir uyg'onib so'rabdi:

— Tikyapsanmi, jonim, tikyapsanmi?

— Tikyapman, xolajon, tikyapman, — debdi mushuk.

Yalmog'iz kampir kulbaga otilib kiribdi, qarasa, qizcha yo'q, uning o'rniga mushuk kiyim tikishga urinib yotganmish. Yalmog'iz mushukni rosa savaladi va:

Xap senimi, qari muttahan! Xap senimi, yaramas! Menga qizchani qo'yib yubording? Nega uning ko'zlarini o'g'it olmading? Nega yuzlarini timdalab tashlamading? deb urilcha boshladi. Mushuk:

— Men senga shuncha yillardan beri xizmat qilaman, hatto kemirilgan suyakni ham ravo ko'rmagansan, qizaloq meni go'sht bilan siyladi! — deb javob qaytaribdi. Jodugar kulbadan otilib chiqibdi va itlarga baqira ketibdi:

— Nega qizchani tilka-pora qilmadinglar, nega tishlamadinglar?

— Biz senga shuncha yildan beri xizmat qilamiz, hatto kuyindini ham ravo ko'rmagansan, qizaloq esa bizni non bilan siyladi! — deb javob berishibdi iltar.

Yalmog'iz darvozaning oldiga chopib borib unga do'q ura boshlabdi:

— Nega g'ichirlab shovqin ko'tarmading, nega yo'lini to'smading, nega qizchani hovlidan chiqishiga yo'l qo'yding?

— Men shuncha yildan beri xizmatini qilaman, hatto oyog'im ostiga suv sepib qo'yishga yaramagansan, qizcha bo'lsa yog'ni ham ayamadi! — deb javob beribdi darvoza.

Yalmog'iz qayrag'ochning oldiga borib o'shira ketibdi:

— Nega qizchani ko'zlarini savalab tashlamading?

— Men senga shuncha yildan beri xizmat qilaman, sen menga oddiy ipni ham ravo ko'rmagansan, qizcha esa menga tasma sovg'a qildi! — debdi qayrag'och.

Yalmog'iz kampir xizmatkorini ham so'kishga tushibdi:

— Nega sen nonko'r meni uyg'otmading, chaqirmading? Nega uni qo'yib yubording?

— Men senga shuncha yildan beri xizmat qilaman, sendan bir og'iz shirin so'z eshitmadim, qizcha esa menga ro'molcha sovg'a qildi, men bilan yaxshi muomala qildi! — debdi xizmatkor.

Yalmog'iz baqirib hammayog'ni boshiga ko'taribdi, so'ng qizchani ortidan quvib ketibdi.

Qizcha qochib-qochib charchabdi, to'xtab qulog'ini yerga qo'yib tinglabdi: yer titrabdi, silkinibdi, demak, yalmog'iz kampir yetay deb qolibdi. Qizcha taroqni chap yelkasidan oshirib tashlabdi, o'sha zahoti daraxtlarning ildizi yerga uch sarjin botgan, uchlari bulutlarni quchgan quyuq o'rmon paydo bo'libdi. Yalmog'iz kampir yetib kelib daraxtlarni kemirib o'ziga yo'l ochishga tushibdi.

Bu vaqtda qizcha ancha joyga qochib borishga ulguribdi. Undan ma'lum vaqt o'tib qizcha yana qulog'ini yerga tutibdi: yer titrar, silkinarmish, demak, yalmog'iz qizchada davom etyapti va juda yaqin qolibdi. Qizaloq baqirib o'ng yelkasidan oshirib tashlabdi. O'sha zahoti kundan keng, chuqurdan chuqur darvo paydo bo'libdi. Yalmog'iz kampir yetib kelibdi va g'azabidan tishlarini ochibdi, negaki daryodan o'tolmabdi. Uyiga qaytib kelib buqalarini darvo labiga haydab kelibdi va:

— Ichinglar, buqalarim! Oxirgi tomchisigacha ichinglar! — deb buyuribdi.

Buqalar suv ichishga tushishibdi, lekin daryoning suvi ana kamaymasmish. Yalmog'izning jahli chiqibdi va qirg'oqqa o'tirilib o'zi suv ichishga tushibdi. Ichaveribdi, ichaveribdi, oxiri yoritib ketibdi.

Qizcha bu vaqtda orqa-oldiga qaramay qochibdi.

Kech kurganida otasi uyga qaytib xotinidan:

— Qizim qani? — deb so'rabdi. Xotini:

— Xotinikiga igna-ip olib kelgani ketgandi, negadir bog'lab qoldi, — deb javob beribdi.

Ota zavotlarga tushib, endi qizchani qidirib yo'lga chiqqanigini bo'lib turganida qizcha chopib kelib qolibdi, natijasi bo'g'ziga tiqilib, arang nafas olayotganimish.

Qayerda eding, qizalog'im? — deb so'rabdi otasi.

— O'tagan, — javob beribdi qizcha. — O'gay onam meni opachlikiga jo'natgandi, opasi qoqsuyak yalmog'iz kampir ekan. U meni yemog'chi bo'ldi. Undan arang qochib qutuldim!

Barcha gapdan xabardor bo'lgan otasi jahli chiqib yerni sotini iflos supurgi bilan uydan quvib solibdi. Uta bilan qiz shundan keyin birgalikda farovon yashay boshlashibdi. Shu yerda ertagimiz ham tugadi.

QANOATLI CHUMOLI

(kabardin xalq ertagi)

Kunlardan bir kun chumoli yo'lda ketayotib bir kishiga yo'liqibdi. U odam barcha qushlar va jon zo'rlar tilini bilarkan.

— Nega boshing bunchalar katta? — deb so'rabdi odam chumolidan.

— Nimagaki boshim aql-zakovatga to'la, — deb javob beribdi chumoli.

— Nega be'ing bu qadar ingichka? — yana so'rabdi odam.

— Chunki juda kam ovqat yeyman, — debdi chumoli.

— Xo'sh, qancha ovqat yeysan? — so'rashda davom etibdi odam.

— Bitta bug'doy doni menga bir yilga yetadi, — deb javob qaytaribdi chumoli.

— Ko'ramiz, bitta bug'doy doni bir yilga yetarmikin, yo'qmi, — debdi odam va qalpog'ining astarini ochib, ichiga chumoli bilan bir dona bug'doy donini solib qo'yibdi.

Oradan bir yil o'tibdi. Odam chumoli haqida butunlay unutib yuboribdi. Ikkinchi yil tugay deganida birdan chumoli bilan kelishuvi esiga tushibdi. Qalpog'ining astarini ochib ko'rsa, chumoli hamon o'tirganimish, yonida yarimta bug'doy doni turganimish.

— Bitta bug'doy doni menga bir yilga yetadi deganding, ikki yil o'tsa ham zaxirangda donning yarimi turibdi-ku, — debdi hayratlanib odam.

— Meni qalpog'ining ichiga tiqib qo'yg'an tentak umuman esidan chiqarvorsa kerak deb o'ylab, ochdan o'lmaslik uchun bug'doy donini to'rt qismga bo'lgandim, — javob qaytaribdi chumoli.

HAYDON TILI

(serb xalq ertagi)

Iki kishining cho'poni bo'lgan ekan, u uzoz yillar davomida o'z xo'jayiniga sadogat va halollik bilan xizmat qilibdi. Kunlardan bir kun cho'pon qo'ylarini o'tlatib yurib o'rmonda g'ayritabiiy vishillagan ovozni eshitib qolibdi. Qarasa, o'rmonga o't ketib, alanga ichida ilon yashilab yotganimish. Cho'pon buni ko'rib to'xtabdi.

— Cho'pon! Xudo haqqi, meni olovdan qutqar! — deb yalang'abdi ilon.

Cho'pon tayozq olib uzatibdi, ilon tayozga ilashib cho'ponning qo'liga o'rmalabdi, qo'lidan esa bo'yiga o'tibdi va butun tanasiga chirmashib olibdi. Cho'ponning katta qo'li ochib ketibdi:

— Bu ne kulfat? Seni qutqarishga qutgardim-u, o'zimga halokatga duchor qildim!

Cho'pon, — debdi ilon, — meni otam — ilonlar shohining o'ldiga olib bor.

Cho'pon bu taklifni rad etib:

— Qo'yilarni qarovsiz tashlab ketolmayman, — debdi.

Qo'yilarningdan xavotir olma, ularni jin ham urmaydi, endi tezroq yo'lga tush.

Cho'pon o'rmon bo'ylab juda uzozq yo'l yuribdi, oxiri tash ilonlardan to'qilgan darvozaga yetib kelibdi. Ilon buxalak chalgan zahoti darvoza ochilibdi. Ilon cho'ponni shunday maslahat beribdi:

Marofiga kirishimiz bilan otam senga oltin-kumush va turli javohirotlarni taklif qiladi. Lekin bularning hammasini rad et, faqat senga hayvonlar tilini tushunish qobiliyatini ato qilishini so'ra. U birdaniga rozi bo'lmaydi, lekin oxiri noiloj ko'nadi.

Haqiqatan ham saroyga kirishlari bilan ilonlar shohi ko'ziga yosh olib:

— O'g'ilginam, qayerlarda yuruvding? — deb so'rabdi.

Ilon otasiga bo'lgan vogelarni bir boshdan gapirib beribdi, olovda yonib kul bo'lishiga bir bahya qolgan, cho'pon uni qutqarganini aytibdi. Shunda ilonlar shohi cho'ponga:

— Ey odamzod, seni qanday taqdirlay, istaganingni so'ra, — debdi.

— Menga hech narsaning keragi yo'q, faqat hayvonlar tilini tushunish qobiliyatini ato qil, — debdi cho'pon.

— Yo'q, bunday qobiliyat senga baxt keltirmaydi. Chunki ushbu qobiliyatga erishsang-u, bu haqda bi-rortasiga gapiradigan bo'lsang, o'sha zahoti til tortmay o'lasan, — debdi ilonlar shohi.

— Agar rostdan taqdirlash niyating bo'lsa, meni hayvonlar tilini tushunadigan qilib qo'y, mabodo ista-masang, salomat bo'l, boshqa narsaning keragi yo'q, debdi cho'pon va o'g'irilib keishga tushibdi. Shoh uni to'xtatib:

— Shoshma! Bu yozga kel. Agar shunchalar xohlar ekansan, na iloj, qani, og'zingni och, — debdi.

Cho'pon og'zini ochgan ekan, ilonlar shohi uning og'ziga tushibdi.

— Endi sen mening og'zimga tuffa, — debdi shoh.

Cho'pon ilonning og'ziga tushibdi. So'ng yana shoh tushibdi: bu ishni uch marta takrorlashibdi. Oxirida shoh:

— Mana, sen hayvonlar tilini tushunish qobiliyatiga ega bo'lding. Sog'-omon bo'l, lekin yodingda tut, agar ya-shashni istasang, birovga bu qobiliyating haqida churq etib og'iz ochma. Aytgan zahoting til tortmay o'lasan, — debdi.

Cho'pon yo'lga tushibdi. O'rmonda ketayotib qushlar, hayvonlar va boshqa jonzorlarning tilini tushunayot-ganini anglabdi. Qo'ylarining oldiga yetib kelib, ularni

soch ehtiyibdi, hamma qo'ylar joyida ekan. Qo'ylari ham olavotganini ko'rib, o'zi ham biroz mizg'ib olish gan tushibdi. Hali ko'ziga uyqu ilinar-ilinmas ikkita sig'a echib kelib daraxt shoxiga qo'nibdi va o'z tillarida shaharlashibga tushishibdi:

Bu cho'pon bilmaydi, qora qo'zichog' yotgan joyni qoray yerto'la bor, yerto'la oltin va kumushga to'jal! Bu so'zlarni eshitib cho'pon xo'jayining oldiga borib bir gapni unga gapirib beribdi. Xo'jayin unga arava kiritibdi, ular birgalashib xazinani qazib olib, uyga kel- tushibdi. Xo'jayin halol inson ekan, u xazinani to'jalig'i- dan cho'ponga beribdi.

Hammamni ol, o'g'lim, — debdi u. — O'zingga uy-joy qur, uylan va baxtli hayot kechir.

Cho'pon xazinani olibdi. Uy qurib, uylanibdi, er-xotin birgalashib yashay boshlashibdi. Tez orada cho'pon xo'jayin o'z qishlog'idagi, balki butun viloyatdagi eng masallarga oylanibdi. Qo'ylarini boqish uchun cho'pon- ni oltinli boqish uchun yilqibog'larlar yollabdi. Bir kuz ham xotiniga:

— Barcha ichimlik va yeguliklar tayyorla, ertaga cho'- polarga olib boramiz, bir yayrashsin azamatlar, — deb-

di. Kuchli hamma narsani hozirlabdi. Ertasiga tongda ular xotirga yo'l olishibdi. Kech kiray deganida xo'jayin cho'ponlarga:

— Yenglar, ichinglar, xursandchilik qilinglar, kechasi pishan o'zim qo'rtiqdayman, — debdi.

Panda bo'rilar uvlab, itlar akillay boshlabdi. Cho'pon qabog' solib:

— Lazmatli qo'y go'shtidan bahramand bo'lish uchun kerakli bo'ladimi? — so'rabdi bo'rilar. — Sizlar ham go'sht- dan bahramand qolmay sizlar!

Kelaveringlar, biz ham bir yayraylik, — deb javob beribdi itlar.

Faqat og'zida ikkitagina tishi qolgan qari ko'ppak:

— Bekorga ovora bo'lyapsizlar. Toki og'zimda ikkita tishim bor ekan, xo'jayininga zarar yetkazishlariga yo'l qo'ymayman, — debdi irlilab.

Tong yorishishi bilan xo'jayin qari ko'ppakdan boshqa barcha iltarni yaxshilab savalashni buyuribdi. Cho'ponlar:

— Xudo xayringni bersin! Ularga rahm qil! — deyishga tushibdi. Xo'jayin:

— Men aytganimdek qiling! — deb buyuribdi va xotini bilan uyiga o'tlanibdi.

Er ayg'irda, xotini esa biyani mingan ekan. Ayg'ir oldinga yetib ketibdi, biya esa ortda qolibdi. Ayg'ir kish nab biyaga:

— Imillamasang-chi! Nega ortda qolib ketding? — debdi.

— Ha, sening ishing oson, — debdi biya, — sen bitta xo'jayinni mindirib olgansan, men esa uchtasini: xonim, qornidagi bolasi, o'zining qornidagi toychoqni ko'tarib ketyapman.

Bu so'zlarni eshitib xo'jayin ortga o'girilib kulibdi, xotini esa uning kulayotganini ko'rib biyani tezlab eriga yetib olibdi va nega kulayotganini so'rabdi. Eri:

— Shunchaki, o'zim, — deb javob beribdi.

Lekin xotini ishonmabdi va eriga xarxasha qila boshlabdi.

— Xudo xayringni bersin, xotin! Nega bunaqasan-a? O'zim ham, to'g'risi, nega kulganinni bilmayman, — debdi eri.

Biroq eri javob qaytarishdan qanchalik qochgani nani xotinning xarxashasi shunchalik oshib boraveribdi. Oxi-ri er:

— Agar aytadigan bo'lsam o'sha zahoti til tortmay o'lsaman, — debdi.

Xotini uning gapiga ishonmabdi va aytasan deb turib olibdi. Shu tariqa uyga yetib kelibdilar. Er o'sha zahoti tobutga buyurtma beribdi, tayyor bo'lishi bilan uni uy-ning ro'parasiga qo'yibdi.

Heali tobutga tushib yotaman, — debdi xotininga, — nega kulganinni senga aytaman va o'sha zahoti yorug' boqmani tark etaman.

Shunday deb tobutga yotibdi va atrofga nazar tashlabdi. Bu vaqtda uning oldiga vafodor ko'ppagi chopib ketibdi, xo'jayinning bosh tomoniga o'tirib olib yig'lashga tushibdi. Buni ko'rib er xotininga:

— He horda non olib kelib itga ber, — deb buyuribdi.

Katta non bo'lagini ko'ppakka tashlabdi, lekin u nega qayo ham boqmabdi. Shu payt xo'roz kelib nonni qargalay boshlabdi. It xo'rozga:

— Yaramas ochofat! Senga faqat qorin to'ydirish kerak, nahotki, ko'rmayotgan bo'lsang, xo'jayin o'lishga tayyorlanayapti-ku, — debdi.

O'tlan o'lar, ahmoqqa qonun bormi? — debdi xo'roz. — Men, mening yuzta xotinim bor, ularning hammasi gah damam qo'llimga qo'nadi. Xo'jayin esa bitta xotinini bosa olmaydi.

Bu so'zlarni eshitib er tobutdan turibdi, qo'lliga xiv-cho'li olib xotinini uyga chaqiribdi.

— Qani, yur-chi, senga hammasini aytib berganim bo'lsin, — debdi.

Kattin erining vujohatini ko'rib jim bo'libdi va boshqa hech qachon undan o'shanda nega kulganini so'rashga bermabdi.

ALDAR UA UNING XOTINLARI

(osetin xalq ertagi)



adim o'tgan zamonda bir aldar² yashagan ekan. Uning ikkita xotini bo'lib, biri chiroyli-yu, lekin aqli kalta va takabbur ekan; ikkinchisi ko'rimsizgina-yu, lekin aqli va mehnatkash ekan. «Ikki xotini borning tashvishi ham ikki hissa bo'ladi», — deb bekoriga aytishmagan mashoyixlar. Haqiqatan ham, aldarning uyida bir zum ham tinchlik yo'q ekan: kunda-kunora xotinlar janjallashib, urishib turisharkan. Ularning majarolari, tortishuvlari aldarni jonidan to'ydirib yuboribdi va xotinlaridan birini olib qolib, ikkinchisining javobini berishni diliga tugibdi. Buning uchun har ikki xotini ning aqlini sinab ko'rishga abd qilbdi.

Birinchi bo'lib go'zal xotinini chaqiribdi va undan so'rabdi:

- Dunyodagi eng mashhur va mehribon zot kim?
 - Mening otam, — deb javob qaytaribdi xotini.
 - Nima hammadan tezkor?
 - Otamning tulpori.
 - Dunyoda eng badavlat odam kim?
 - Otam.
 - Eng go'zal odam-chi?
 - Mening o'zim.
- Aldar unga indamabdi va chiqaver deb ishora qilbdi. So'ng ko'rimsiz xotinini chaqiribdi va unga ham boyunli savollarni beribdi:
- Dunyodagi eng mashhur va mehribon zot kim?

² Aldar — o'rta asrlarda Shimoliy Kavkazda hukmron tabaqalardan biriga mansub bo'lgan odam.

Farvardilgori olam, — deb javob qilbdi xotini.

Thuvoydagi eng chiroyli nima?

Ikki xotini.

Eng boyi-chi?

Eng.

Eng tezkor narsa nima?

Ikki xotini.

Aldar ikkinchi xotiniga ham ruxsat beribdi va o'ziga beribdi: «Otamning boyligi-yu o'zining husn-u tarovatiga mehliyo bo'lgan, buning ustiga, uyimni g'urbat-tanadan aylantirgan, urish-janjaldan boshqani bilmay-bilmay otamni boshimga uramanmi?» — deb fikr qilbdi.

Eng go'zal xotinini ota-onasimikiga jo'natib:

«Taha badavlat otangning yonida o'z husningga mah-bus bo'lib yuravor», — debdi.

Aldardan so'ng aqli xotini bilan baxti-saodatli umr-kuchiribdi.

BO'RI, IT VA MUSHUK

(sloven xalq ertagi)

Bir xonadonda uzoq vaqt yashagan it qarib-qarib yib qolgach, xo'jayinlari uydan haydab solibdi. It xafa bo'lib, yig'lab yo'lda ketayotib bir bo'riga yo'liqibdi. Bo'ri:

— Hoy og'ayni, nimadan bunchalar xafasan? — deb so'rabdi. It:

— Meni tinch qo'y, bo'rivo'y, baribir menga yordam berolmaysan, — debdi.

Lekin bo'ri holi-joniga qo'ymay so'ravvergach, o'rti o'zining shum taqdiri haqida gapirib beribdi. Bo'ri uninglab bo'lgach debdi:

— Eh, shuniyam tashvish deb o'tiribsanmi, men menga yordam beraman. Qulog'ingga quyib ol! Ertaga xo'jayining o'g'illari bilan pichan o'rimiga ketadi. Qoq tush payti xonim ularga tushlik olib boradi va o'zi bilan kichkina chaqalog'ini ham oladi. Tushlikdan so'ng hammam lari yana ishga tushadilar, chaqaloqni esa o'rmon yopqasidagi soya joyga qo'yishadi. Shu vaqtda men o'rmondan chopib chiqaman, go'yoki chaqaloqni o'g'irlamoqchi bo'lib olib qochaman. O'sha zahoti sen hurishga kiritib Xo'jayinlarning shovqin-suroni eshitib yetib kelishadi. Men qochishga tushaman, sen esa ortimdan yetib ol va chaqaloqni qutqarib qol, faqat esingda bo'lsin — tishlar ko'rma.

Ertasiga kelishganlaridek qilishibdi. Ona chaqaloq bilan tushlik keltiribdi, ko'ppak chaqaloqning yoniga emaklab boribdi, bo'ri ham o'sha yerga yashiribdi. Bu

shahar it borra boshlabdi, xo'jayinlari yetib kelibdi, bo'ri menga qo'liga olib o'rmon tomonga qochibdi, it uning ortidan yuguribdi, shu darajada qizishib ketibdiki, kechalar ham yoddan ko'tarilibdi. Bo'rini quvib yetib kelib tishlabdi, bo'ri og'riqdan chingirib yuboribdi. Men tining chungalidan qutulib o'rmonga yashiribdi. Xo'jayinlari quvonchdan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, itni uyga keltiribdilar, uni non va pishloq bilan yashatdilar.

Kech tushganida ko'ppak qishloqni sayr qilgani yo'l bo'ldi. Yo'lda ro'parasidan bo'ri chiqib kelib:

— Kech, bu edi, — deb ming'irlabdi. — Nega tishlading,

mening bog'mag'in demabmidim? Seni musobaqaga chaqirganmi. O'rmonda ko'rishamiz. Men o'rtog'im bilan kelamiz, sen ham o'zingga guvoh ol. Agar mug'ombirlik bilan bo'rin tovlaydigan bo'lsang, qara, suyangingni ham qutqalaymiz o'qib tashlayman.

It qamog'in tortib uyga ravona bo'libdi. Ko'zining ichki og'zali, o'ziga o'zi: «Bunaga bo'ridan qo'rqmaydigan o'rtog'ni qayerdan topaman? Birota itni ko'ndirib ham deylik, bundan nima naf? Bo'ri bo'rini yetaklab ketadi va ikkalamiz ham tamom bo'lamiz», — deb so'zlashib boraveribdi.

Ayni shu payt yonidan mushuk o'tib ketayotganidan tining so'zlari qulog'iga sal-pal chalinib, uni savolga tortibdi.

Hoy og'ayni, nega yig'layapsan? Boshingga qanday mushukot tushdi?

— Eh, sen menga yordam berolmaysan. Meni bo'ri chaqalaga chaqirdi va guvoh olib borishimni tayinlabdi, — debdi it.

Ko'p kuyunaverma, og'ayni, shuniyam tashvish bo'lib yotibsanmi? Sen bilan mana men boraman! — debdi mushuk.

Menga yo'l bo'lsin, baroqvoy. O'zing bir qarichgina bo'lsang, — debdi it.

Lekin oxiri noiloj rozi bo'libdi. Ertasi kuni tunda it bilan mushuk uchrashib, o'rmonga yo'l olishibdi. O'rmonga yetib borib qarashsa, allaqachon bo'ri o'trog'i – aytilgan bilan ularni kutib turganmish. Bo'ri raqiblarini ko'ribdi bilanog ayiqqa:


– It bilan kelayotgan yirtqichni qara! Hech zamonda bunaga maxluqqa ko'zing tushganimi? Bilasami, men xazonlar orasiga kirib yashirinanman, sen daraxtning ustiga chiqib ol, – debdi.

Shunday qilishibdi ham. Bo'ri qurigan xazonlar orasiga berkinibdi, ayiq esa daraxtning tepasiga chiqib ketibdi. Vahimaga tushgan bo'ri arang nafas olarmish U yaxshiroq ko'rish maqsadida boshini sal qimirlatgan ekan, qurigan barglar shitir-shitir qilibdi. Buni eshitgan mushuk sichqon yurgan bo'lsa kerak deb o'ylab xazonlar orasiga tashlanibdi. U yerdan bo'ringning qulog'iga chiqib turgan ekan. Mushuk bir sakrab o'tkir tirnoqlar bilan bo'ringning qulog'iga chang solibdi. Bo'ring esxona si chiqib ketib ura qochishga tushibdi, yugurib borayotib toshga urilib o'libdi.

Buni ko'rib ayiq: «Qara-ya, bo'ringning surobini to'g'ri qildi, endi meni ham tinchitadi, shekilli. Bu baloyi ofatdan uzog'roqqa sakrab qutulay», – deb o'ylabdi. Bor kuchini to'plab sakragan ekan, to'ppa-to'g'ri boya bo'ri urilgan toshning ustiga tushibdi va til tortmay o'libdi. Mushuk bir sakrashda itning oldida paydo bo'lib:

– Ko'ringmi ularning tanobini qanday tortib qo'yganimni? Sen bo'lsang meni yoningga olishni xohlama ganding! Ikkala yirtqichni tinchitgumimcha ko'z ochib yumishga ham ulgurmadim-ku. Bu ishni bir o'zim ul daladim, sen bir chekkada kuzatuvchilik vazifasini bajarding, xolos, – debdi.

It xursand bo'lib mushukka minnatdorchilik bildiribdi, so'ng ikkalasi ko'ngillari to'lib uyga yo'l olishibdi.





QUSHCHA BILAN FIL

(blind xalq ertagi)

Qush o'rmon orasida ulkan bir daraxt o'sgan ekan. Daraxtda bir qushcha in qurib, bola ochibdi. Kun-lardan bir kun fil kelib daraxtga suyanibdi va qatnash boshlabdi. Daraxt g'ijirlab silkinishga tushibdi. Yerga ketgan polaponlar onasining piyiga tiqilib olib, shu qush indan tushug'ini chiqarib:

— Bu buyuk hukmdor, axir atrof to'la daraxt-ku. Bu daraxtni silkitmang. Polaponlarimni cho'chitib yubor-ya! Ular indan qulab chilparchin bo'lishi mumkin zarf — debdi.

Fil bunga javoban hech narsa demabdi. Kichik ko'z-qush bilan qushchaga qarab, ulkan quloqlarini qoqib in-sonay kelib qolibdi.

Kelgan kun fil daraxtning yoniga yana kelib hafsa-ya bilan qushcha boshlabdi, daraxt qatig'iroq silkinishga tushibdi. Polaponlarning kapalagi uchib, onalarining yoniga singillashibdi. Ona qushning jahli chiqib, filga: — Bu daraxtni silkitga ko'rman! Aks holda adabingiz-ning hech qo'yaman! — deb bag'iribdi.

Filning topa sochi tikka bo'lib:

— O'sha jinitdekina qush bo'lsang! Menga, bahay-bay filga, changalzor hokimiga nima qila olarding? Hozir menatni shunangangi silkitamanki, in-pining, polapon-larimning bilan yerga qulab, til tortmay o'lasan! — debdi.

Qushcha indamabdi.

Kelgan kun fil tag'in kelibdi va yanada zo'r berib daraxtga suyanib qushinshga tushibdi. Shu payt qush-

cha indan chiqibdi va chaqmoq tezligida flning qulog'iga uchib kiribdi. Shunaqangi qitiqlashga, timdalaishga tushibdi, fil o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi. Boshlarini silkir, quloqlarini qimiratarmish-u, bundan hech naf chiqmasmish. Shunda fil qushchaga qulog'indan chiq deb yalinishga tushibdi, uni ham, bolalarini ham boshqa bezovta qilmaslikka qasam ichibdi. Qushcha

– Axir men ham daraxtni silkitmaslikni, polaponlarimni qo'rqitmaslikni iltimos qilgandim-ku, – deb javob beribdi.

Agar men yegan pirogga pul to'ladinglar, tishimni o'zga sartaroshning haqini berdinglar. Meni bir yo'la ochdan ham, og'riqdan ham xalos qildinglar. Yarim realim esa yonimga qoldi.

Shunda xalq ikki senyorning ustidan kulishga tushibdi. Ular hushlarini osiltirib tezda bu yerdan jo'nab qolibdi.

IKKI QO'SHNI

(ozarbayjon xalq ertagi)

adim zamonda bir mamlatkada ikki qo'shni yashagan ekan. Ulardan biri aldam-qaldam yo'llar bilan boyib ketibdi va savdogarga aylanibdi. Boshqasi esa halol yo'l bilan uy qurib, bog' yaratibdi va bog'dorchilik bilan shug'ullana boshlabdi. Kunlardan bir kun qo'shnilar bir masalada o'zaro tortishib qolishibdi. Savdogar:

— Menga qara, qo'shni, ko'rib turibmanki, erta-yu kecha qora terga botib ishlaganing-ishlagan. Xohlaysanmi, menga pul topishning oson yo'lini o'rgataman, — debdi.

— Xo'sh, qanaqa yo'l ekan? — so'rabdi bog'bon.

— Arzon sotib olib, qimmat sotasan, odamlarni laqatlatasan, nima qilib bo'lmasin bironlarning haqini yulib qolishga intilasan. Shunda boyliging o'z-o'zidan ko'payib boraveradi, ko'ngling ham taskin topadi, — deb o'rnatibdi savdogar.

— Yo'q, qo'shni, — e'tiroz bildiribdi bog'bon, — buning boyligining menga keragi yo'q. Odam faqat halol yo'l bilan pul topishi shart.

Leikin savdogar bu fikrga qo'shilmabdi. Ular uzoq tortishibdilar. Oxiri savdogar:

— Kel, yaxshisi, safarga chiqamiz va dastlab uchragan uch nafar yo'lovchidan qaysi birimiz haq olamiz mizni so'rab bilamiz. Agar sening gapingni ma'qullasalar, bor boyligimni senga beraman, mabodo men haq bo'lib chiqsam, bor buding kamimaniki bo'ladi, — deb taklif qilibdi.

Shu tariqa safarga o'tlanishibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Yo'l da ularga bir o'qibdi bola uchrabdi. Savdogar:

O'g'lim, biz bir masala yuzasidan tortishib qoldik. Men boyligimni talonchilik yo'li bilan o'ttirgan ma'qullayman, qo'shim bo'lsa, aksincha, boyligim faqat halol yo'l bilan topilishiga yuqadi deb turib olgan. O'zing aytib qaysi birtimizning gapimiz to'g'ri? — debdi. O'spirin javob ham o'tirmay:

Albatta sizning gapingiz to'g'ri, savdogar amaki, — deb javob beribdi.

Menga nima degandim, og'ayni? — debdi savdogar qo'shniga qarab.

Bog'bon o'spirinning gapini jiddiy qabul qilmabdi, shu yosh bo'lsa, unga nima yaxshi-yu, nima yomonligini tushunib kim qo'yibdi? — deb o'ylabdi va savdogarga:

Nima ham derdik, yo'l da davom etamiz, yana ikki kundan so'rashimiz kerak-ku, — debdi.

Ular yo'l da davom etibdilar. Yurib-yurib bir o'rmonga kelib qolibdilar. O'rmon oralab ketayotib bir o'tloqzorga yo'lliqibdilar. Qarasalar, yerdan buloq chiqib turgan ekan. Buloq suvidan to'yib ichib, biron dam olibdilar va yana yo'l ga ravona bo'libdilar. Ko'p o'tmay ularga bir sochi yo'lliqibdi — yuzidan backirdorligi bilinib turgan-atlab, savdogar uning oldiga borib:

Ovchi birodar, o'zing bizning tortishuvimizni hal qilib ber. Men boyligimni ayyorlik yo'li bilan to'plagan ma'qullayman, qo'shim esa halol yo'l bilan topgan yaxshi deb turib olgan. Ayt-chi, qaysi birimiz haqimiz? — deb so'rabdi.

Muhtaram savdogar, — deb javob beribdi ovchi, — albatta men haqsan.

Beehora bog'bonning hayrati oshib:

Savdogar do'stim, gani, yur, uchinchi odamni ham bilmaylik. Ko'raniz, u qanday javob berarkin, — debdi.

Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Qarashsa, chayla yonida bir chol o'tirganimish. Yo'lovchilar u bilan salom-alik qilib bo'lib, o'zlarining tortishuvlarini ayitibdilar.

Mening fikrimcha, savdogar haq, — debdi chol.

Bogʻbon bu soʻzni eshitib hushidan ayrtlab deb
«Qiziq, bu oʻlkada birolta halol odam bormi oʻzi? — deb
oʻyladi ichida. — Kimdan soʻrama, hammasi vijdonat
lig-u egrilikni yoqlaydi-ya».

— Choh bobo, aytimg-chi, nima bilan shugʻullanasiz?
soʻrabdi bogʻbon.

— Men shohning jallodi boʻlganman, — javob beribdi
chol.

«Ha, jalloddan qanday ezgulikni kutish mumkin?»
deb oʻyladi bogʻbon.

Xullas, garovda yutqazgan bogʻbon halol yoʻl bilan
topgan narsalarining barini savdogarga berishga moʻl
bur boʻlibdi. Bor budiidan ayrilgach: «Bunday odamlar
orasida yashagandan oʻzga yurtlarga bosh olib ketganini
boʻlsin», — deb oʻyladi. Tayyorgarlik koʻrib yoʻlga tush-
di. Yoʻl yuribdi, yoʻl yursa ham moʻl yuribdi, oxiri ovloqning
bir joyda qoyatoshlar bilan oʻralgan gʻorga yetib boribdi.
Yomgʻir tinmay yogʻayotgani uchun bogʻbon berkinahga
boshga joy topolmay gʻorga kiribdi. Ichkariga kirib qo-
sa, gʻor ichi juda obod ekan. Bu yerda yigʻilgan boylardan
koʻrib bogʻbon hayratdan yoda ushladi. Bir burchakda
javohiroʻlar, boshqa burchakda qimmatbaho molatib,
yana bir burchakda bugʻdo-yu gurruch toʻldirilgan qoplar
uyulib yotganmish. Gʻorda yoʻq narsaning oʻzi yoʻqmasdi.

Bir zunda qosh qorayibdi. Yomgʻir toʻxtamagan
quyayotganmish. Bogʻbon endi gʻorni tark etishga shay-
langan paytda gʻor tomon kelayotgan bir toʻp odamlar
koʻzi tushibdi. U gʻorning eng ovloq burchagiga yashib-
nibdi. Kelganlar qulayroq joylashib olib, dasturxon
yozihibdi va tanovul qila boshlashibdi. Gap-soʻzlardan
malum boʻlibdiki, bular qirq qarogʻchi, gʻor esa ular
ning makoni ekan. Qarogʻchilar shoh xazinasi oʻsha
rishi rejasini muhokama qila boshlabdilar. Ularning
sardori hammaga vazifalarini taqsimlabdi, shundan
soʻng qurullanib yoʻlga tushishibdi. Qarogʻchilar ortidan
bogʻbon ham chiqib ketibdi.

Qarogʻchilar katta mahorat bilan shoh xazinasi oʻmar-
idagi talangan mollarni tuyalarga ortib gʻorlariga kelti-
rtilibdi. Ertalab shoh xazinasi talangani haqida hamma-
singha shov-shuv koʻtarilibdi. Podshoh huzuriga butun sa-
von ahli uchqirib, qarogʻchilarni qidirib topishni topshirib-
di. Hech vazir oldinga bir qadam tashlab taʼzim qilibdi va:
«Olimpanohning umrlari ziyoda boʻlsin, bunday vo-
qea endi yuz berayotgani yoʻq. Mana bir necha yildirki
bu qarogʻchilar xalqni talab keladi, lekin hech kim ular-
ni qoʻlga tushirishga erishmagan, ular qayerda yashashi
ham maʼlummas, — debdi.

Hech narsani bilmayman, — debdi podshoh. — Men-
ga desan, qoʻshin butun shaharning tit-pitini chiqarsin,
qarogʻchilarni yerning tagidan boʻlsa ham topishsin.

Podshohning gapini ikki qilib boʻlmaydi-ku. Shu bois
zot-u aʼyonlar, butun saroy ahli qurullangan askarlar-
ni olib qarogʻchilarni qidirishga tushishibdi. Qidiruv
ahli yetti kecha-yu yetti kunduz davom etibdi, lekin
qarogʻchilarning izi ham topilmadi. Barchalari qovogʻ-
lardan qor yogʻilib saroyga qaytishibdi.

Bogʻbon shaharga yetgunicha shoh xazinasi oʻmarilgani
haqidagi xabarlarini eshitib kelibdi. Roʻy bergan voqeadan
yashli xabardorligi uchun saroyga borib, shoh huzuriga
kirishga izn soʻrabdi. Shohga taʼzim bajo keltirib:

«Shavkatli hukmdorimning umrlari uzog boʻlsin,
men xazinangizni talagan qarogʻchilar qayerda yashi-
rganini bilaman, — debdi. Shoh:

«Agar gaplaring rost boʻlsa, xazinaning yarmi seniki
boʻladi, — deb xitob qilibdi.

Shohim hech zavol koʻrmasinlar, — deb javob qay-
taribdi bogʻbon, — menga hech qanaga xazinaning keragi
yoʻq. Shahringizdan uncha olis boʻlmagan joyda bir gʻor
bor. Uni qirq qarogʻchi makon tutgan. Xazinangizni ham
osha gʻorga olib borib yashirishgan.

Shoh oʻsha zahoti gʻorga toʻqqiz ming toʻqqiz yuz
ingichon toʻqqiz qurullangan suvorini joʻnatibdi. Navkar-

lar g'orni topishdi, u yerda shoh xazinasiidan tashqari ham mol-u dunyo bisyor ekan, lekin birortayam tirk jon yo'qmis. Askarlar tuzoq qo'yib poylashibdi, bir qaroqchilar kelishmabdi. Shunda g'ordagi bor mol-dunyoni tuyalarga ortib saroyga keltirishibdi. Podshoh sovinchdan terisiga sig'may ketibdi.

— Xo'sh, musofir, — debdi podshoh bog'bonga, — men o'z so'zima turaman: bu boylikning teng yarini mening meni ham xuddi shu qaroqchilar kabi bir necha kun olib bir savdogar xonavayron qilgan. Shunday ekan, mening tirikchilik uchun bir hovuch tilla ham yetib ortadi.

— Bu kam, — e'tiroz bildiribdi podshoh, — uyalmay yana nimadir so'ra.

Bog'bon:

— Hukmdorim toabad salomat bo'lsinlar, qaroqchilar g'orida sizning xazinangizdan tashqari xalqning talangan mollari ham bor edi. Ular o'z egalari qaytalar yomon bo'lmasdi, — debdi bog'bon.

Podshoh bog'bonning gapini ma'qul topibdi. Uning buyrug'i bilan jarchilar butun shahar bo'ylab molni odirganlarni chorlabdi. Hamma kelib o'ziga tegishli molni olib ketibdi. Bog'bon shoh hadya qilgan bir hovuch tillani olib ortga qaytibdi. Uch kecha-yu uch kunduz yul yurib ona shahriga yetib kelibdi. Shoh bergan tillalarni yangi uy qurdiribdi, yana bog' yaratibdi. Qisqa vaqt ichida avvalgi mavgeyini tiklab olibdi. Bog'bonning savdogar qo'shnisi buni ko'rib, uning yoniga kelib salomlashibdi va — Qo'shni, axir bir miring ham qolmagandi-ku. Shuncha mol-dunyoni qayerdan topding? — deb so'rabdi.

Bog'bon savdogarning ochko'zligini bilarkan. Uning yangi bir hiylani o'ylayotganini ko'rib:

— Falon shaharda bir necha yil davomida qirg qaroqchi hukmronlik qilib keladi. Xalqning oxirgi tiyinib qashilib olishgan. Men tasodifan ular qayerda yashashlarini bilib qoldim va bu haqda podshoga xabar berdim. Shoh

qaroqchilarni yer bilan yakson qilib, odamlarga qashilib qaytarib berdi. Odamlar minnatdorchilik bilan uni taqdirlashdi. Istasang, o'sha shaharga kelib, uchragan odamga qaroqchilar makonini sen o'z boshing qilingini ayt. Odamlar seni tilla-kumushga tortib tashlashadi. Shu tariqa qo'lingni sovuq suvga urib, boylikningni yanada ko'paytirib olasan, — debdi.

Hukm savdogar bog'bonning gapiga ishonib uyiga qaytibdi, xarjunini yelkasiga ortib o'sha shaharga yo'l olib, shahar devori yonida uch kishini uchratibdi. Ularning oldiga kelib:

— Mening kimligimni bilasizlarmi? — deb so'rabdi.

Yo'q, bilmaymiz, — deb javob berishibdi ular.

Men podshohga qirg qaroqchining g'orini ko'rsatib bergan kishiman, — debdi savdogar.

U uchalo'vi o'sha qirg qaroqchilardan ekan.

— Omadimiz chopganini qara-yal! — deb xitob qilishibdi qaroqchilar. — Axir biz seni hammayoqdan qidirib yuribmiz-ku. Qani, bizga uyingni ko'rsat-chi, senga shunga ko'p sovg'a olib boramizki, hech qayerga sig'dir olmay qolasan.

Savdogar qayerda yashashini aytibdi. Qaroqchilar hamma o'rtoqlarini chaqirishibdi va to'g'ri savdogarning uyiga yo'l olishibdi. Savdogarning uyidan qo'lga ilinadigan hamma narsani olib ketishibdi, savdogarning o'zini esa o'lgudek kaltaklashibdi. Savdogar uch kecha-yu uch kunduz qimirlamay yotibdi. Lekin sekin-asta o'ziga ketibdi. Bog'bon undan xabar olgan chiqqan ekan, savdogar alamidan:

— Ko'ryapsanmi boshingga qanday kunlar tushganini? — deb chingqiribdi.

Oxiri shunday bo'lishini allaqachonlar bilgandim, qo'labol, — javob beribdi bog'bon. — Harom-xarishdan to'plagan mol-dunyo suv ustiga qurilgan qasrdek gap.

SODDA DEHQONNING OMADLI SAUDONI

(nemis xalq ertagi)

B unlardan bir kun bir o'ta sodd dehqon o'z bozoriga olib borib, yetti talerga sotibdi. Qo'shib bir mahol qurbagalarining: «Vaq, vaq», — degan ovozi eshitilibdi. «Ha, — deb o'ylabdi dehqon, — butun dalaga eshitirib baqirishlarini qara-ya. Yo'q, men ikki taler emas, yetti taler daromad qildim». Hovuz labiga kelib — Ey ahmoqlar! Nima, sanashni bilmaysizmi? Ikki emas, yetti taler, — deb baqiribdi. Lekin qurbagalar o'zini kidan qolishmasmish: «Vaq, vaq».

— Agar gapimga ishonmasalaring, sizlarga sanash ko'rsatshim mumkin, — debdi dehqon va yetti talerni sanabdi.

Lekin qurbagalar unga parvo ham qilmabdi va yana «Vaq, vaq», — deb qichqirishibdi.

— Eh, — deb baqiribdi ranjib dehqon, — nahotki, men dan yaxshiroq bilaman deb o'ylasalaring? Qani, unda o'zingiz sanab ko'ring.

Shunday deb hamma pullarini suvga irg'itibdi va qirg'oqqa o'tirib qurbagalar pulni sanab bo'lib qaytarishlarini kuta boshlabdi. Lekin qurbagalar: «Vaq, vaq», — deb sayrashda davom etishibdi, pulni ham qaytarishmabdi. Dehqon qorong'i tushguncha kutibdi. So'ng

— Hoy xumkalla baqavachchalar! Og'zingiz tandirak baqir-chaqirigiz qulog'ni tom bitiray deydi-yu, yetti talerni sanab tugatolmadilaring-a. Sanab bo'lgunimicha kutib turaveradi deb o'ylayapsizlarmi? — deb ko'yibdi. Shunday deb uyiga ravona bo'libdi. Qurbagalar undan ortidan: «Vaq, vaq», — deb qichqirishda davom etibdi.

Dehqon uyiga qoni qaynab kirib kelibdi. Tez orada ikkitachi sigirini so'yibdi, «Agar omadim chopsa, g'ashni sotib, ikkita sigirning pulini ishlab olaman, undan ham yonga qoladi», — deb o'ylabdi. Go'shtni olib shaharga boribdi, shahar devoriga yaqinlashganida bir g'ala it uchrabdi, eng oldinda ulkan tozi kelayotganidek, «Tozi yaqinlashib dehqonni hidlabdi va: «Vov, vov», — deb huribdi. It shu tariqa huraveribdi, huraveribdi, dehqon:

Tushunib turibman, «Ber, ber», — demogchisan. Albatta bir bo'lak go'sht so'rayapsan-da, agar senga beradigan bo'lsam, o'zingma nima qoladi? — debdi.

Tozi esa unga javoban: «Vov, vov», — deb huraveribdi. Bir o'zing hammasini yeyolmasang kerak, o'rtog'larim uchun ham so'rayapsanmi?

«Vov, vov», — deb huribdi tozi.

Qo'ymadig-qo'ymadig-da, mayli, go'shtni qoldirg'achin bo'lain: sening egangni taniyman. Gapimni yaxshilab eshit: uch kundan keyin pullarimni uyimga olib ber, aka holda, adabingni beraman, — deb go'shtni yerga tashlabdi va uyiga qaytibdi.

Itlar go'shtni paqos tushira ketibdilar va baland omad: «Vov, vov», — deb hurishga tushibdilar. Buni eshitib dehqon: «Hammasining ber, ber deyishini qara, pulni faqat tozi to'laydi-ku», — deb o'ylabdi.

Urdan uch kun o'tibdi. Dehqon: «Bugun kechqurun shovtning pulga to'ladib», — deb o'ylab xush kayfiyatda yuribdi. Lekin na biror tirik jondan, na puldan darak bermabdi. Oxiri sabri tugab:

— O'zi birovga ishonib bo'lmay qoldi, — deb shahar qasabning oldiga pullarini talab qilgani yo'lga tushibdi.

Qasab dehqonni hazillashyapti deb o'ylabdi, lekin u: «Yo'q, hazil o'z yo'lga, men pullarimni olgani kelgan. Axir tozi iting yaqindagina unga butun boshli sigirning go'shtini berganini aytmadimi? — deb so'rabdi.

Qassobning jahli chiqibdi, qo'lga supurgini olib, dehqonni quvib solibdi.

— Shoshmay tur, yorug' olanda hali haqiqat deganlari yo'qolib ketmagandir, — deb dehqon qiro'l saroyiga yetib olibdi va arz-u dodiga quloq tutishlarini talab qilibdi.

Uni qirolning huzuriga olib kirishibdi. Qiro'l o'z qo'l bilan o'tirgan ekan.

— Xo'sh, qanday arzing bor? — deb so'rabdi. Dehqon:

— Olampanoh, nimasini aytay, baqa va itlar meni so navayron qilishdi, qassob bo'lsa rosa kaltakladi, — deb hamma gapni aytib beribdi.

Shunda malika xandon otib kulishga tushibdi. Qiro'l dehqonga:

— Bu masalada senga yordam berolmayman-u, lekin qizimini xotinlikka olishing kerak: u tug'ilganidan beri tishining oqini ko'rsatmagandi, kamina uni kuldira olgan odamga erga beraman deb va da qilganman. Haa ting bor ekan, — debdi. Dehqon:

— Ey, qizingizni nima qilaman: uyda xotinim bo'lgan menga o'sharning o'zi yetib ortadi; uyga qaytib boraman, hamma meni xotinboz deb o'ylasimi? — debdi.

Qirolning jahli chiqib:

— Juda qo'pol odam ekansan! — debdi.

— Ey shavkatli hukmdor, — debdi dehqon. — Endi men nima qildim?

— To'xta! — debdi qiro'l. — Seni boshqacha mukofotlayman. Endi esa ko'zimdan daf bo'l, uch kundan keyin hali o'zingga tegishli besh yuztani olib ketasan.

Dehqon darvoza yoniga kelganida sog'chi:

— Sen qirolichani kuldirding, buning uchun nimamni olgandirsan? — deb so'rabdi.

— Ha, — deb javob beribdi dehqon, — fikrimcha, menga besh yuz berisha kerak.

— Menga qara, — debdi sog'chi, — o'zingnasini menga bersang-chi, shuncha pulni qayerga sig'dirasan?

— Sen uchun ikki yuzdan voz kechganim bo'lsin, — deb

di dehqon. — Uch kundan keyin kelib qiroldan so'rashing mumkin.

O'sha atrofdan sarrof turgan ekan, u ikkalasining suhbatini eshitibdi, so'ng chopib dehqonning oldiga borib, kamzulidan tortib:

— Rossa baxti chopgan odam ekansiz! Men pulingizni maydalab berishim mumkin, shuncha pulni nima qilasiz? — debdi.

Menda uch yuz qoldi, faqat hozir o'sha pulni ikkiga bir nisbatda chaga holatida berib tur, uch kundan keyin qiro'l men bilan hisob-kitob qiladi, — debdi dehqon.

Sarrof bu taklifdan boshi osmonga yetib, uyidan chaga pullarni keltirib beribdi. Oradan uch kun o'tib farmonga binoan dehqon qiro'l huzurida paydo bo'libdi.

Uning kamzulini yechinglar, — debdi qiro'l, — hozir o'zining besh yuzini oladi.

Eh, — debdi dehqon, — axir bular endi menikimas: ikki yuzini yasovulga sovg'a qilim, uch yuzini esa bir sarrof maydalab berishga ulgurdi, ortiqcha narsaning menga keragi yo'q.

Ubu payt sog'chi bilan sarrof kirib kelib, o'zlariga tegishli hisob talab qilishibdi; shoh farmoni bilan ular roppa-rosa to'lovchadan darjalaribdi. Sog'chi zarbalariga dosh beribdi, chunki bu birinchisi emas ekan-da. Sarrof esa:

Voy, voy, voy, rosa jarangdor taler ekammi? — deb sarrof ko'taribdi.

Dehqon bu safar ham malikani kulishga majbur qilibdi. Qiro'l jahldan tushib, unga:

Hali seni taqdirlashga ulgurmasindan mukofotingni yo'qotishga ulgurgan ekansan, o'rninga senga boshqa narsa bera qolay: hozir xazinamga bor-da, istaganingni oltin olib ket, — debdi.

Dehqon o'sha zahoti xazinaga boribdi va cho'ntaklarni ulgurmanicha oltin solibdi. So'ng tamaddixonaga borib pullarni sanashga tushibdi. Sarrof esa uni izma-iz taqib qilibdi va dehqonning: «Qanaga qallob ekan-a bu

qiroʻl, meni rosa laqillatdi. Agar pulni oʻz qoʻli bilan berganida, har tugʻul, qancha pulga egaligimni bilardim. Tavakkaliga choʻntaginga tiqqan pullar qanchaligini qayerdan bilaman?» — deb vaysayotganini eshitib, yo Parvardigor, — deb oʻylabdi sarrof ichida, — u qiroʻlning haqorat qildimi? Borib bu haqda qiroʻlni ogohlantirib, buning uchun meni mukofotlashlari, manavi yaramagan esa jazolashlari aniq».

Qiroʻl sarrofdan dehqonning haqoratimuz soʻzlari haqida eshitib, jahli otiga minibdi, sarrofga dehqonni ketkazibni buyuribdi. Sarrof dehqonning oldiga yugurib borib:

— Hoziroq qiroʻlning huzuriga borarkansan, — debdi.

— Bu holatda borsam boʻlmasov, — debdi dehqon, avval oʻzingga yangi kamzul tiktiray, kisasida shuncha puli bor odam eski kamzulda borishi mumkinmi?

Sarrof dehqonning yangi kamzulsiz bormasligini tushunib yetibdi, qiroʻlning jahidan tushib qolishidan chotibdi.

— Men senga doʻstligimni hurmati chiroyli kamzulni berib turishim mumkin. Birodari uchun nimalar qilmaydi odam! — debdi.

Dehqon bu taklifdan xursand boʻlib, sarroflning kamzulini kiyibdi va u bilan birga yoʻlga tushibdi. Qiroʻl dehqonga haqoratli gaplari haqida aytibdi.

— Ey hukmdorim, — debdi dehqon, — sarrof umrida bu ror marta rost gapirganmikin oʻzi? Indamasangiz, hatta ustimdagi manavi kamzulni ham meniki deysizdan toʻgʻmaydi.

— Kamzul rostdan ham meniki, — deb baqiribdi sarrof, — Doʻstligimni hurmati qiroʻlning oldiga borishing uchun senga uni berib turuvdim-ku!

Buni eshitgan qiroʻl:

— Ikkalangizdan biringiz meni laqillatganingiz aniq, menimcha, bu sarrof boʻlsa kerak, — debdi va sarrofdan yana dararlashni buyuribdi. Dehqon esa yangi kamzulni da uyiga ravona boʻlibdi va:

— Bu safar, nihoyat, omadim chopdi, — debdi.

QOCHOQ PIROG

(belorus xalq ertagi)

IK ularning birida ikkita xotin pirog pishirishibdi, pirog tayyor boʻlgan zahoti uni talashishga tushishibdi. Na unisi, na bunisi teng boʻlishishini bilmay, pirogning hammasiga ega chiqmoqchi boʻlibdi. Hinchiladi:

Pirog oʻz-oʻziminiki! — deb turib olibdi. Ikkinchisi:

Kechirib qoʻyasani! — debdi jahli chiqib. — Pirogni oʻzingga men koʻproq haqliman!

Xotinlar talashib-tortishayotgan paytda pirog oyog chiqarib tovanadan sakrab tushibdi va qochib qolibdi. Ketaveribdi-ketaveribdi, yoʻlda bir tulkiga yoʻliqibdi.

Pirogjon, pirogjon, shoshib-pishib qayoqqa ketayapman? — debdi tulki ogʻzining soʻlagi ogib.

Ikkita goʻl kampirdan qochishni uddaladim! Sendan qochish ham ish boʻpimi! — debdi pirog va jufakni qochib qolibdi.

Yoʻlda unga quyon uchrabdi. Quyon hayratdan koʻzlarini chiqaribdi:

Pirogjon, pirogjon! Shoshib-pishib qayoqqa ketayapman? — deb soʻrabdi.

Ikkita goʻl kampirdan, ayvor tulkidan qochishni uddaladim! Sendan qochish ham ish boʻpimi! Qoʻlingdan ketma tutib ol, — debdi pirog va yoʻlda davom etibdi.

Yorib-yurib dayo boʻyidan chiqib qolibdi. Bir qayiq ichida odamlar oʻtirgan ekan. Ular:

Pirogjon, pirogjon! Shoshib-pishib qayoqqa ketayapman? — deb soʻrashibdi.

– Ikki go'l kampirdan, ayyor tulkidan, chopqon quyondan qochishni uddaladim! Sizdan qochishni bo'ptimi! – debdi pirog va chopib ketaveribdi.

Yo'lda unga xo'ppa semiz cho'chqa uchrabdi.

– Pirogjon, pirogjon! Shoshib-pishib qayoqqa ketasan? – deb so'rabdi cho'chqa.

– Eh, – debdi harsillab pirog. – Ikki go'l kampirdan ayyor tulkidan, chopqon quyondan, qayiqdagi odamlardan qochishni uddaladim! Sendek baqaloqdan qochish ish bo'ptimi!

Cho'chqa:

– Nima, nima? Quloqlarim og'irroq. Yaqinroq kelib qulog'ingga gapir-chi, – debdi.

Pirog cho'chqaning qulog'iga gapirish uchun yaqinlashgan ekan, cho'chqa hap etib uni yeb qo'yibdi. Bataqamir tagimiz ham shu yerda tamom bo'ldi.





KALONDIMOG' KO'RSHAPALAK

KALONDIMOG' KO'RSHAPALAK

(amerika xalq ertagi)

I yig'irin kuz kunlaridan birida ko'rschapalak hiqillab yig'lab uchib yurgan ekan. Uning yig'isini qushlar qiroli – burgut eshitib qolib:

– Ey ko'rschapalak, nega yig'layapsan? – deb so'rabdi. Junda sovgotib ketdim, – javob beribdi ko'rschapalak.

Axir boshqa qushlarga ham osonmas, lekin ular shikovat qilayotganlari yo'q-ku.

Ular menchalik sovgotishmaydi-da, chunki ham-mahallaning pati bor, meniki esa yo'q.

Burgut bir daqiqa o'yna tolibdi, so'ngra xizmatkorlari qushlarga barcha qushlardan ko'rschapalak uchun bittadan pat keltirishni buyuribdi. Ko'rschapalak patlarni taqib olgach go'zal bir jonivorga aylanibdi. Uning qanotlari, boshi va tanasi kamalakdek turfa ranglarga burkilibdi. Ko'rschapalakning dimog'i ko'tarilib, hech kim bilan gaplashmay qo'yibdi. Shoxga chiqqolib ko'lmakdagi aqalga mahliyo bo'lib uzukun o'tiraverarmish.

Qushlar xafa bo'lib burgutning oldiga arzga borishibdi.

Ko'rschapalak endilikda o'zini o'rmondagi eng go'zal qushman deb o'ylab qoldi, – deyshibdi ular. – Hech kimni mensimaydi, hatto tovuslar ham uning nazdida bad-hushlarga emish.

Burgut ko'rschapalakni chaqirtiribdi va qushlarning arzi to'g'rimi deb so'rabdi.

– To'g'ri, – deb javob qaytaribdi ko'rschapalak. – Endilikda bu qushlar mening tengimmas, hammasidan ko'ra ertim chiroyliroqman. Ishonmasang o'zing qara.

Ko'rschapalak o'sha zahoti qanoatlarini yozibdi. Hozir
gut bilibdiki, uning gaplarida jon bor.

— Juda soz, — debdi burgut. — Agar o'zingni shu qadar
hurliqo deb hisoblayotgan ekansan, hamma qushlar
patlarini qaytarib olishgani bo'lsin. Ularning patlarini
qay ahvolga tusharkinsan, ko'ramiz.

Barcha qushlar ko'rschapalakka tashlanib o'zlarining
patlarini qaytarib olishibdi. Ko'rschapalak ko'lmakda
o'zining aksini ko'rib dahshatga tushibdi: unga qo'y
yalang'och, burushgan, tasqara maxluq qarab turgan
mish. Ko'rschapalak shu darajada uyaliib ketibdi
o'shandan buyon faqat kechalari — hech kim uni ko'rmay
maydigan paytdagina yuradigan bo'libdi.

UCH ABJIR O'G'IL

(fransuz xalq ertagi)

Bir faqir insonning uchta o'g'li bo'lgan ekan. O'g'il-
lari voyaga yetganida ota:

— Farzandlarim, baringiz borib hunar o'rganib
kelinglar, kasb-korsiz hayotda juda qiyinasiz, — debdi.

O'g'illar safarga otlanishibdi. Uzoq vaqt o'qib-o'rgani-
shibdi. So'ng uylariga qaytib, otalariga:

— Endi biz qo'li gul ustaga aylandik, o'z kunimizni
ko'ylabimiz mumkin, — deyishibdi.

Ota rosa xursand bo'libdi va dasturxon yozib, bolala-
rini mehmon qilishga shoshibdi. Tuxumni olib endi quy-
mog' tayyorlamogchi bo'lib turgan ekan, to'ng'ich o'g'il:

— O'zingizni urintirmang, ota. Endi men oshpazman,
ko'za ochib-yumguncha quymog' pishirish qo'limdan kela-
di. Iltiz ona darvoza yonida kutib turing, — debdi.

So'ng tok barglaridan olov yoqib, quymog' tayyorlab-
di, shu zahoti tovaning bandiga bir urgan ekan, quymog'
mo'ridan uchib chiqib, to'g'ri choling kosasiga borib
tushibdi. Ota bunday epchillikni ko'rib angrayib qolibdi.

Ular sital atrofiga o'tirishibdi. Bir mahal darvoza yoni-
da bir oltiq to'xtab, tulporini taqalab berishlarini so'rabdi.

— Otajon, buni menga qo'yib bering, axir endi men
temirchiman, — debdi o'rancha o'g'il.

So'ng taqani qo'lga olib olovga tutibdi va oltiqqa:

— Sal naritroq tisarilib, joningiz boricha darvozaga qa-
rsh ot soling, — debdi.

Oltiq tulporini darvozaga qarab uchiribdi, o'rancha
o'g'il taqalarni ulog'itirgan ekan, taqalar uchib borib

to'g'ri o'ning oyoqlariga o'rnashib qolibdi. Ota hali ko'rib tong qolibdi.

Shu payt chaqmoq chaqibdi. Otaning kapalagi to'lib ketibdi: hozir barcha ekinlar nobud bo'ladi deb o'yladi-da. Kenja o'g'il esa:

— Otajon, endi nimani o'rganganimni ko'rsatib berib keldi. — debdi.

So'ng qo'lga tayov olib, chaqmoq bilan olisha ketibdi. Chaqmoq yergacha yetib kelmabdi, ekinlarga zarar yetkazolmabdi. Ota o'g'illarining shunaqangi abjir yig'itini bo'lib yetishganini ko'rib sevinchdan terisiga nig'izlanib ketibdi.

OCHKO'Z AYIQCHALAR

(Venger xalq ertagi)

IK o'lka bo'y cho'zgan tog'lar ortida odam oyog'i yetmagan quyruq o'rmon bor ekan. O'rmonda bir keksa ayiq yasharkan. Uning ikkita o'g'li bor edi. Ayiqchalar ulg'ayishib baxt izlab safarga otlani- shibdi. Dastlab onalarning oldiga borib u bilan xayrlashibdi. Keksa ayiq o'g'illarini bag'riga bosib, hech qachon bir-birlaridan ayrilmaslikni, ahil-inoq bo'lishni ta'kidlabdi. Ayiqchalar onasining o'g'itini yodda tutishga tashabkor bo'lib yo'lga chiqibdi.

Dastlab o'rmon yog'alab, so'ngira dala bo'ylab yurishibdi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ketaveribdi. Nihoyat, ularning barcha yeguligi tugabdi. Yolda esa qo'lga ilinarli hech vago yo'qmis. Ayiqchalar o'z-ara tortib yonma-yon ketaveribdi.

Aka, qorinim rosa ochqab ketdi! — zorlanibdi kichigi. Mening ahvolim senikidan besh battar, — deb qaytarib bosh chayqabdi kattasi.

Ular moiloj yo'lida davom etibdi. Bir payt oldidan ulkan pishloq chiqib qolibdi. Uni teng ikkiga bo'linibchi bo'libdi-u, buning uddasidan chiqolmabdi. Ochko'zlik ayiqchalarni aqldan ayiribdi, ikkalasi ham o'ziga kichikroq ulush tegib qolishidan qo'rqarkan. Ular birlashishga tushishibdi. Shu payt qayog'dandir ayiq tulki kelib qolib:

Nima haqda tortishyapsizlar, yigitchalar? — deb so'rabdi.

Ayiqdar kelishmovchilikning sababini aytishibdi.

Shu ham muammo bo'ldi-yu! — debdi tulki. — Axir tortishib o'tirishga arzimaydi-ku. Pishloqni mana men

teng taqsimlab beraman: kaminaga katta ham, kichik ham bir.

– Qanday zo‘r fikr! – xitob qilishibdi ayiqchalar Qani, bo‘lib ber.

Tulki pishloqni olib ikkiga bo‘libdi. Lekin ayyov tulla shunday taqsimlabdiki, bir bo‘lak ikkinchisidan katta roq bo‘lib qolibdi. Ayiqchalar o‘sha zahoti:

– Bunisi kattal! – deb baqirishga tushishibdi. Tulki

– Jim, yigitchalal! Bu ham muammo emas. O‘zingizni sabr qiling, hozir hammasini to‘g‘rilayman, – deb ulalari tinchlantiribdi.

So‘ng katta bo‘lakdan bir tishlab yutib yuboribdi. Endi kichik bo‘lak katta bo‘lib qolibdi.

– Yana teng bo‘lmadi! – ming‘irlashibdi ayiqchalar Tulki ularga o‘pkalanib qarab:

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – debdi. – Bu ishini o‘zingizga qo‘yib ber ring.

Shunday deb katta bo‘lakdan tishlab yebdi. Endi katta bo‘lak kichrayib qolibdi.

– Bu ham teng emas! – deb baqirishibdi ayiqchalar bezovtalanib.

– Hozir ko‘nglingizdagidek qilib beraman, – debdi tulki og‘zi to‘la pishloqligi uchun arang tilini qimirlatib.

– Tag‘in o‘zingizni sabr qiling, pishloqlar tenglashadi.

Ish shu tariqa davom etibdi. Ayiqchalar u bo‘lakdan bu bo‘lakka, bu bo‘lakdan u bo‘lakka qarab turaverib shibdi. Tulki esa bu vaqtda tishlab-tishlab pishloqlarning barakasini uchiraveribdi. Har ikkala bo‘lak tenglashganida pishloq deyarli tugab, uvodekkina qolibdi. Tulki:

– Nima ham derdik, garchi bo‘laklar juda kichik bo‘lsa-da, lekin teppa-teng! Sizlarga yoqimli ishtaho ti layman, ayiqvoylar! – deb ishshayib, dumini ilkilatgan cha juftakni roslabdi.

Ochko‘zlik oqibatida ayiqchalar og‘zidagi oshini olib rib, qo‘lini burniga tiqib qolaverishibdi.

OQIL DEHQON

(shved xalq ertagi)

IK unlardan bir kun qiroi ovga ketayotib bir parchagina yerida ter to‘kib ishlayotgan dehqonga ko‘zi tushibdi. Qiroi uni yoniga chaqirib:

Kuninga qancha pul topasan? – deb so‘rabdi.

To‘rt tanga, hukmdorim, – debdi dehqon.

Bu tangalarni qanday sarflaysan? – yana so‘rabdi qiroi.

Birinchisini o‘zim yeyman, ikkinchisini g‘amlab qo‘yaman, uchinchisini qaytarib beraman, to‘rtinchisini esa tashlab yuboraman, – debdi dehqon.

Qiroi yo‘lida davom etibdi, unga dehqonning javobi juda g‘alati tuyulibdi. O‘ylabdi, o‘ylabdi, lekin bu gapning mag‘zini hech chaqolmabdi. Shunda ortiga qaytib:

– Boyagi gapingni tushunmadim, birinchisini yeysan, ikkinchisini g‘amlab qo‘yasan, uchinchisini qaytarib beraman, to‘rtinchisini esa tashlab yuborasan, buning ma‘nosi nima? – deb so‘rabdi.

Ha, bu judayam oddiy gap-ku, – javob beribdi dehqon. – Birinchisini o‘zim yeyman, ikkinchisiga qaytganida menga g‘amxo‘rlik qiladigan bolalarimni boqaman, uchinchisiga bir paytlar meni tarbiyalab to‘yimga yetkazgan otamni boqaman, to‘rtinchisiga esa sotilimni boqaman. Xotinim juda johil va yalqov, shu bois unga pul sarflash tashlab yuborish bilan teng.

– Endi tushundim, – debdi sevinib qiroi, – faqat mening yuzimni yuz marta ko‘rmaguncha bu haqda hech kimga churq etib og‘iz ochmaslikka so‘z ber.

Dehqon va‘da bergach, qiroi ketibdi. Ertasiga qiroi o‘z yozmalarini chaqirib:

— Sizlarga bir topishmoq aytaman! Bir dehqon boqilga to'rt tanga pul topadi: birinchi tangani o'zi yeydi, ikkinchisini g'amlab qo'yadi, uchinchisini qaytarib beradi, to'rtinchisini esa tashlab yuboradi. Buning ma'nosi nima? — deb so'rabdi.

Vazirlar o'ylabdi, o'ylabdi, lekin hech biri javob berolmabdi. Biroq bir ayyor vazir kecha yo'lida qirohning allaganday dehqon bilan subhatlashganini eslab, jumboqning javobini bilish uchun uni qidirib topishga ahd qilibdi. Vazir dehqonni topibdi, lekin u javob berishni istamabdi. Qirohning yuzini yuz marta ko'rmaguncha birovga chiqqan etib og'iz ochmaslik haqida va'da berganini aytibdi.

— Bundan osoni yo'ql — deb xitob qilibdi kalondining vazir va cho'ntagidan yuz kumush tanga chiqarib, deb gonga uzatibdi.

Har bir tangada qiro'l tasviri tushirilgan ekan. Tangalarni ko'zdan kechirgan dehqon vazirga jumboqning javobini aytibdi. Vazir ko'ngli shod bo'lib qiro'l huzuriga boribdi va:

— Men jumboqning javobini topdim, janobi oliylar! debdi.

Qiro'l g'azablanib:

— O'zing topgan bo'lishing mumkinmas, senga dehqon aytib bergan! — debdi. So'ng dehqonni oyog'ini yerga tekizmay olib kelishlarini buyuribdi.

Sogchilar dehqonni keltirishgach, tepa sochi tikka bo'lgan qiro'l:

— Qanday qilib va'dangni buzishga jur'at eilding? deb hayqiribdi. Dehqon:

— Olampanoh, men sizning yuzingizni yuz marta ko'rdim-da, — deb javob qaytaribdi va vazir bergan tangalarni ko'rsatibdi.

Shundan so'ng qiro'l dehqonni sog'-salomat qo'yib yuborishga majbur bo'libdi.

KALTAFAHM BOY

(buryat xalq ertagi)

Qadim o'tgan zamonda bir faqir kishi yashagan ekan, uning bitta-yu bitta ho'kizi bor ekan. Kullarning birida o'rmonda ho'kizga yetita bo'ri hujum qilibdi. Ho'kiz o'zini himoya qilib orgaga chekina-solib va shu tariqa o'sha oradagi omborxonaga borib qolibdi. So'ng orga oyog'lari bilan tepinib omborxonaning eshigini ochibdi va ichkariga kirib olibdi. Ocho'z bo'lar uning ortidan ergashibdi. Ikki o'rtadagi ayovsiz oshbuva bo'rilardan biri tasodifan omborxona eshigini tortib yopib qo'yibdi.

Bir kuni faqir ho'kizini qidirgani yo'lga chiqibdi. Uning izlarini bo'rilarning izlari yonida ko'rib ho'kizidan soqilini uzibdi. Dardi dunyosi qorong'i bo'lib, jilla qursa, bo'rilarning suyaklarini qidirib topishga qaror qilibdi.

Ho'kiz xo'jayinining tovushini eshitib bor ovozi bilan bo'rilarga tushibdi. Faqir ho'kizi tirikligini bilib se-sinib ketibdi, omborxona eshigini ochib qarasa, ho'kiz bir burchakda ko'zlari gonga to'lib shoxini o'qtalib tur-ganish. Atrofida beshta bo'ri cho'zilib yotganmish, ikkita bo'ri esa saroyning ikkinchi burchagida o'tirib olib zaralarini yalayotganmish. Faqir yirtqichlarni bir yoqli qilibdi.

Uyga qaytayotsa, faqirga o'z ulusidan bo'lgan bir boy uchrabdi. Boy kalondimog'lik bilan:

— Hoy yalangoyog, ho'kizing bilan qayerdan kel-yapsan? Shuncha bo'ri terisini qayerdan olding? Terilarni menga sot, ulardan mo'yna tikiraman! — debdi.

Faqir og'irligini bir oyog'idan ikkinchisiga tashlab:

— Ho'kizim o'rmonda yetita bo'rini suzib o'ldirdi, ma ham ho'kizlaringizni o'rmonga qo'yib yuborsangiz, top pa-tekin mo'ynaga ega bo'lasiz, — debdi.

Boy shoshib-pishib uyiga yuguribdi, xizmatkorlariga ho'kizlarni shoxiga po'lat uchlik taqib o'rmonga haydash yuborishni buyuribdi. «Ho'kizlarim hammayoqni bo'rt terisiga to'ldirib yuboradi, shunda yanada boyib ketaman», — deb o'ylabdi boy.

Haqiqatan ham, uning ho'kizlari o'rmonda bo'rilar galasiga duch kelibdi va na'ra tortib ularga tashlanibdi, bo'rilar daraxtlar ortiga bekinibdi. Ularni yanchib tashlashga uringan ho'kizlar o'tkir po'lat uchlik o'rnatilgan shoxlarini daraxtga sanchib qaytib sug'urib ololmadilar. Vaziyatdan foydalanib bo'rilar ho'kizlarni qo'lib tashlabdi.

Uch kun o'tib boy ho'kizlar izidan o'rmonga jo'nabdi. Bo'ri terilarini shilish uchun xizmatkorlarini ovlabdi ham unutmabdi. O'rmonga borib ho'kizlarning suyaqlarini topishibdi, xolos.

ALDAR KO'SANING SAUDOSI

(qozoq xalq ertagi)

(Q) adim zamonda bir ovulda Aldar ko'sa ismli kishi yushagan ekan. Ko'zi o'tkir, qo'l-oyo'g'i chaqqon, aqli naq toshni yoradigan ekan. U ahmoq va ziqna odamlarni laqillatishni, ularning ustidan kulishni yoqtirgan. Boy-badavlat bo'lmasa ham, ko'pincha ayyorlik to'li bilan qora qozonini qaynatish uchun semiz-semiz qo'ylarni undirib yurarkan.

Ovulda jahir boy degan kishi ham yasharkan, u shko'z va xasisligi bilan tanilgan ekan. Boyning chorvosi ahunqang'i ko'p ekan, ertalab sanashni boshlagan odam qosh qorayganida tugatarikan. Bir kuni Aldar ko'sa boyning yoniga kelib:

Muhтарam boy ota, ikki tangam bor-u, kartmonim bor. Ularni katimda olib yuraverib qo'llarim tolib ketdi. Shu pullardan qutulsam degandim. Menga yordam berolmaysizmi? — debdi.

Mayli, senga ko'maklashganim bo'lsin! — debdi boy. Faqat qanday nafm tegishi mumkin?

Ikki tangamga bir ulogchangizni soting, — debdi Aldar ko'sa.

«Sotсам sotibman-da», — deb o'ylabdi boy va poda tohidan bir cho'loq, eti suyagiga yopishgan, o'limsangi ulogchani tutib Aldar ko'saga beribdi.

Ma, ushla, senga shunday zo'r uloqni arzonga berayman. Qani, ikki tangani cho'z, — debdi.

Aldar ko'sa ulogchani olibdi, ammo qo'lidagi tangalarni mahkam siqgan ko'yi:

— Bilasizmi, boy ota. Men fikrimdan qaytdim. Ikki tanga bilan ulogchani oling-da, evaziga menga bir qo'zi bering, — debdi.

«Nima qipti, yomon fikr emas, ikki tanga, qo'zini chasiga ulogcha!» — deb o'ylabdi boy va poda orolab ketibdi. Uvoqdekina qo'zichoqni ushlab kelib, Aldar ko'saga beribdi.

— Ma, ushla, zo'r qo'zi-da o'ziyam. Ikki tanga bilan ulogchani bu yoqqa cho'z, — debdi.

Aldar ko'sa qo'zichoqni olibdi, biroq yana ikki tanga bilan ulogchani qo'ldan bo'shatmay:

— Bilasizmi, boy ota. Fikrimdan qaytdim. Ikki tanga ganiyam, ulogcha va qo'ziyam oling-da, menga echki bering, — debdi.

«Yomon taklif emas, — deb o'ylabdi boy, — ikki tanga qo'shimchasiga ulogcha va qo'zichog'. So'ng podadan eng ozg'in, oyog'ida arang turgan echkini ushlab kelib Aldar ko'saga tutqazibdi.

— Ma, ushla, bo'rdoqi echki bu. Ikki tanga, ulogcha va qo'zini bu yoqqa uzat, — debdi.

— Shoshilmang, boy ota! — debdi Aldar ko'sa. — Men fikrimni o'zgartirdim. Ikki tangani, ulogchani, qo'zini va echkini oling-da, menga bir qo'y bering. Faqat shu shuki, qo'yni o'zim tanlab olaman.

«Mana bu oldi-berdi hammasidan foydali bo'ladi!» deb o'ylabdi sevinib boy. — Ikki tanga, ulogcha, qo'zi va echki, bularning bari bittagina qo'yga-ya!» So'ng Aldar ko'saga qarab:

— Qo'ymading-qo'ymading-da, mayli, tanlay qol debdi.

Aldar ko'sa podadan eng katta, semiz qo'yni tanlab olib, boyga ikki tanga, ulogcha, qo'zi va echkini beribdi. Qo'yni yelkasiga o'ngarib jo'nab qolibdi. Jatir boy kelib — G'irt tentak-da bu Aldar ko'sa! Bittagina qo'yga shuncha boylikni alishib o'tiribdi-ya, — debdi. Shu tanlab u chuv tushganini anglamay ham qolibdi.

OLJANOB DEHQONNING HADYASI

(Koreys xalq ertagi)

adimgi tumanlarning birida yashovchi yosh dehqon odam bo'yidek keladigan turp yetishtiribdi. Dehqon yigit uni shu tumanni uzog' yillardan buyon boshqarib kelayotgan hokimning huzuriga olib beribdi va boshini egganicha gap boshlabdi:

— Hokim janoblari, bu yil dehqonchilik uchun serhosil bo'ldi. Men o'zim yetishtirgan turplarning eng kattasini sizga olib keldim. Iloji bo'lsa, shuni qabul qilsangiz.

Keltirgan narsangni ololmayman. Sen turmushingni yaxshilash uchun dehqonchilik qilgansan. Shu sababli uni olib ket-da, o'z manfaatning yo'lida ishlat, — debdi hokim.

— Unday emas, janob hokim. Men bir necha yildan beri dehqonchilik qilaman. Ammo bunday katta va zo'r turpni birinchi ko'rishim. U sizning adolatlil hokimlik qilayotganingiz uchun Xudoning in'omi bo'lsa kerak. Hima bo'lgandayam, samimiy hadyamni rad etmasangiz, — chin dildan o'tinibdi dehqon yigit.

Hokim: «Uning qalbi shunchalik pok bo'lsa, samimiy hadyasini qanday rad etishim mumkin?» — deb o'ylabdi va xizmatkorini chaqirib, undan so'rabdi:

— Bu yigitni taqdirlamoqchiman, arziqli biror narsa bermi?

— Ha, yaqinda bir dehqon tulumatdan qutqarganligi evaziga minnatdorchilik yuzasidan buzoqcha berib ketgandi, o'sha turibdi, — javob qilibdi xizmatkor. Hokim:

– Ayni muddao bo'ldi. Darhol uni olib kel, – debdi va dehqonga yuzlanib so'rabdi: – Uyingda sigir bormi?

– Yo'q, hali sotib ololganim yo'q.

– Unday bo'lsa, olibanobling uchun bu buzog'chani senga sovg'a qilaman. Uni yaxshilab boq, yanada hojrat bo'lishga harakat qil, – debdi hokim.

Kutilmagan ilfotdan hayratlangan dehqon buzog'chani olib uyiga jo'nabdi. Bu xabar bir zunda butun mahallaga tarqalibdi. Yigiting hasadgo'y qo'ndirgan yangilikni eshitib: «Bitta turpga bitta buzog' berma, men uyimdagi eng katta cho'chqamni hokimga sovg'a qilaman. Zora, kattaroq ho'kizga ega bo'lsam!» – deb o'ylabdi. U cho'chqasini yetaklab hokimning uyiga yo'l olibdi.

– Hokim janoblari, anchadan beri cho'chqa boqamman, lekin bunchalik katta cho'chqani birinchi ko'rishim. Ho' odilgingiz uchun Xudoning inoyati emasmi? Hatto, samimiy sovg'amni qabul qiling, – debdi.

Bu safar hokim hadyani so'zsiz qabul qilibdi. Xizmatini korini chag'irib so'rabdi:

– Taqdirlashga arziyulik narsa bormi?

– Ha, bir necha kun avval yosh dehqon yigit olib kelgan turp bor, – debdi xizmatkor.

Hasadgo'y dehqonga turpni hadya qilishibdi. U qilmishidan pushaymon bo'lib qolibdi.

BIRODGA CHO'QAZISANG O'ZING TUSHASAN

(tojik xalq ertagi)

Bir tulki bir necha kun rosa urinib hech narsa tutolmabdi. U yer-bu yerni toza izg'ib, ochlikdan sillasi quribdi, lekin ovi sira yurishmabdi. Nihojat, horib-charخاب, boshi gir aylanib chuqur o'ralarga o'tirib qolibdi. Shu payt xiralashgan nigohi oppoq dumba yog'ini ilg'agandek bo'libdi. Tulki hatto uning mazali ta'mini og'zida his qilibdi. Tush ko'rmayapman, deb o'ylab bor kuchini to'plabdi. Birdan tulkingning chiqqan ko'zlari o'ralarida turgan haqiqiy dumba yog'ini ko'ribdi. Tulki o'ylab o'tirmay o'ralarga tashlanibdi. Hoshi bilan qattiq bir narsaga urilib hushini yo'qotibdi. O'ralga kelib qarasa, ko'ziga dumba bo'lib ko'ringan narsa oppoq tosh ekan.

Tulki endi o'radan chiqolmasligini tushunib yetibdi. Yashashdan umidini uzib o'ralarning tubiga uzala tushib ko'm-ko'k osmonga tikilib yotaveribdi. Shu payt o'ralarida allakimning soyasi paydo bo'libdi va tulkingning qo'liga shogolning uvullashi eshitiqildi. «Oh, men, ayyorligi bilan dong taratgan tulki, o'ralarning tubida o'limimni kutib yotay-da, bu ahmoq shogol hayotdan bahra olsinmi?» – deb o'ylabdi tulki alam bilan va:

– Kimsan? Nega shovqin solib bemalol ovqatlanishga qo'ymayсан? – deb baqiribdi.

Shogol o'ralarning tubiga qarab oppoq narsaning yonida o'tirgan tulkini ko'ribdi va:

– Tulki boy, u yerda nima qilyapsan? – deb so'rabdi.

– Koʻrmayapsanmi? – debdi tulki burnini toshga ti-
rab. – Qoʻy dumbasini yeyapman!

Dumbaning daragini eshitib shogolning soʻlagi oqibdi
va oʻraning tubiga diqqat bilan tikilibdi. Yaltiroq oq tosh
unga ham dumbaga oʻxshab koʻrinibdi:

– Tulkiboy, – debdi u. – Agar dumbani men bilan ha-
m koʻrsang, senga uzoq umr va rohat-farogʻat tilab
duo qilaman!

– Mayli, – debdi unga javoban tulki, – dumba ikki
lamizga ham yetib ortadi, bu yozga sakral!

Ochiqqan shogol xuddi tulki kabi shoshib oʻraga
sakrabdi va toshga urilib hushidan ayrilib choʻzilib
qolibdi. Tulki qaygʻuni unutib ichigoralik bilan xandan
otib kulibdi. Tulkining qatiq kulgani shu yaqin oradan
oʻtib ketayotgan sherning qulogʻiga chalinibdi. Sher: «Bu
yerda tulki nima qilaypti, nega kuldi ekan?» – deb oʻylab
oʻra labiga kelibdi. Sherni koʻrib tulki oʻzining holatini
eslab oʻsha zahoti kulishdan toʻxtabdi. «Mening boshim
ga shunday ogʻir kun tushdi, bu sher esa erkinlikda ha-
yotdan bahra olib yuribdi, – deb oʻylabdi hasaddan yont-
tulki. – Yoʻq, bunga yoʻl qoʻymayman!» Soʻng gʻandani
egilgan boshini koʻtarib:

– O buyuk hukmdor! Yaxshiyamki, oʻzingiz kelib
qoldingiz. Bu oʻraga sizga atab dumba yogʻi yashlab
qoʻygandim, bugunogʻ ehtib berishga hozirlanib turu-
dim. Lekin ming urinmay uni oʻrnidan jildirolmadim.
Shogolni yordamga chaqirdim, biroq ikkalamiz ham oqta
qoldik, – debdi yaltogʻlanib.

Sodda sher oʻraning tubiga diqqat bilan qarabdi va
u yerda dumbaga oʻxshagan allanarsaga koʻzi tushibdi.
Soʻng:

– Mayli, uni oʻzim olganim boʻlsin, – deb oʻraga sak-
rabdi.

Lekin bu safar tulkiga bironing ustidan kulish ma-
sib etmabdi. Sher bor ogʻirligi bilan tulki va shogolning
ustiga agʻanabdi-da, ularni majaqlab qoʻyibdi.





FIL-BILAN KITNI YENGANI

QUYONNING

QUYONNING FIL-BILAN KITNI YENGANI

(arab xalq ertagi)

Kunlarning birida quyon dengiz qirg'og'iga borib mazza qilib suv o'tlarini yeyishga tushibdi. Bir payt qarasa, sal narivoqda fil bilan kit o'zaro gaplashayotganmish. Quyon xarsang ortiga ya-ahiriya ularning subbatiga quloq tutibdi.

— Fil og'a, — debdi gerdayib kit, — sen quruqlikdagi hayvonlarning eng kuchlisan, suvda esa menga teng keladigani yo'q. Ikkalamiz birlashib yer yuzidagi jamiki jonivorlar ustidan hukm sursak nima deysan? Shunda hech kim bizga qarshi chiqishga jur'at etolmaydi.

Filga kitning gapi ma'qul tushibdi. O'zini hamma tirah-qaqahaydigan, bir imosiga mahtal turadigan qudratli hukmdor sifatida tasavvur etib:

— Zo'r fikr, — debdi. — Sen aytgancha bo'la qolsin.

Fil va kit ketgach, quyon: «Bularning ishtahasi karay-ku, kuchim ko'p deb bari jonivorlar ustidan hukmronlik o'rnatishmoqchi, shekilli. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Men ularga u qadar kuchli emasliklarini, quyonlar ikki dunyoda o'z erkidan kechmasligini isbotlayman», — deb o'ylabdi. So'ng o'ygacha cho'mgancha o'rmonga qaytibdi. O'ylay-o'ylay ikki bahaybat hayvonning ittifoqini buzish va hayvonlarning ozodligini saqlab qolish yo'lini topibdi. O'z do'stlarini yig'ib ularga eshitganlarini aytib beribdi va yordam so'rabdi.

— Menga pishiq va uzun argon keltiringlar, shunda nima qilishimni ko'rasiz, — debdi.

Quyvonlar argonni to'qib unga keltirib berishibdi. Shunda quyvon kitning yoniga borib xushmuomalalik bilan:

– Ey dengiz hukmdori! Kuchsizlarga yordam qo'llab cho'zishingiz mumkinmi? – deb so'rabdi.

– Arzingni aytaver, qulog'im senda, – debdi kit vitqot bilan.

– Sigirim loyga botib qoldi, uni tortib chiqarolmayman, axir juda ramaqijonman-da. Argonni dumingizga bog'lab sigirimni chiqarib bering, iltimos, – debdi quyvon.

Kit bir muddat o'ylanib turgach:

– Mayli, argoningni bog'lay qol, – debdi.

Quyvon argonning bir uchini kitning dumiga bog'lab bo'yniga bog'lay. Sizga hushtak chalib xabar qilganin zahoti bor kuchingiz bilan torting, – debdi.

So'ng quyvon filning oldiga chopib borib bosh og'ib ta'zim qilibdi. Unga ham sigir haqidagi uydirmani aythi.

– Ey hokimi mutlaq, mendan yordamingizni aynamay sigirimni qutqarib qoling! Axir undan boshqa hech va qoyim yo'q, – debdi.

– Xo'sh, qanday yordanim tegishi mumkin? – debdi so'rabdi fil.

– Argonning bir uchini xartumingizga bog'lashimga izn bering, – debdi quyvon. – Sigirni botqoqdan chiqarib uchun bir marta siltashingiz kifoya.

Fil rozi bo'libdi va quyvonning hushtak chalishini kutib argonni tortishga shaylanibdi. Quyvon yugurib borib o'rtoqlarini yig'ibdi, bir tepalikka chiqib hushtak chalibdi. O'sha zahoti fil ham, kit ham argonni o'ziga tortishga kirishibdi, lekin ikkalasi ham o'rnidan qo'zg'alol masmish.

– Shunaqayam og'ir sigir bo'ladingmi? – to'ng'illabdi fil.

– Xuddi daraxtni ildizi bilan qo'porayotgandekman-a.

– La'nati sigir yer ostiga kirib ketmoqchiyov, lekin mendan qochib qutulib bo'pti, – debdi kit.

Shu tariqa ikkalasi ham kuchi boricha tortaveribdi, quyvonlar esa bu bahaybat maxluqlarning tili osilib qolayozganini ko'rib qotib-qotib kulishibdi. Tortish-machog uzog davom etibdi, lekin barcha urinishlar xoye ketibdi. Oxir-oqibat ular qirg'oq bo'yida bir-biriga to'qnashibdi.

– Hali meni tortayotgan senmiding? – hayqiribdi fil.

– Hammadan kuchliroqman deb o'yladingmi, yaramas? Hozir senga ko'rsatib qo'yaman, – deb baqiribdi kit nafratdan titrab.

So'ng g'azabdan yonib yana argon tortishga tushibdi. Lekin bu safar tortishmachog uzogga cho'zilmabdi. Bir mahal argon chars etib uzilib ketibdi. Kit dengizga shaloplab tushibdi, fil esa to'pdek dumalab ketibdi. Shu tariqa ikkalasi yuzko'rmas bo'lib qaytib uchralishmabdi. Quyvonlar barcha jonivorlar ustidan hukmron bo'lishni ko'zlagan ikki bahaybat hayvoni sharmandali mag'lub qilgan do'stlariga tasannolar aytishibdi.

JEK TANBAL

(ingliz xalq ertagi)

adim o'tgan zamonda Jek ismli yigit yashagan ekan. U keksa onasi bilan xaroba bir kulbada turarkan. Onasining birovlarining ipini yigirib borib topgan mablag'iga qo'l uchida tirikchilik qilisharkan. Jek esa g'irt tanballardan ekan. Qo'lini sovuq suvga urishni istamas, yozda soya-salqinda, qishda esa o'choq yaqinida yotgani-yotgan ekan.

Shuning uchun uni Jek tanbal deb atasharkan. Onaning urinsa ham uni o'rnidan jildira olmas ekan. Kullardan birida, dushanba kuni, tog'ati toq bo'lgan onasi.

— Yemak-ichmaging uchun o'zing pul topmasang, uydan haydab yuboraman! — debdi.

Bu so'z Jekning suyak-suyagidan o'tib ketibdi. Dushanba kuni tongda u qo'shni fermerning oldiga borib, kuniga bir chaqaga yollanibdi. Kun bo'yi ter to'kib lablab bir pennini olibdi va uyiga ravona bo'libdi, lekin daryodan o'tayotib tangasini yo'qotib qo'yibdi. Axir uning bino bo'lib tanga ushlamagan ekan-da.

— Eh, tentakvoy! — debdi onasi. — Tangani cho'ntirgingga solib olmabsan-da!

— Keyingi safar shunaga qilaman, — debdi Jek.

Chorshanba kuni Jek yana uydan chiqib, cho'ponga yollanibdi. Cho'pon unga bir ko'za sut beribdi. Jek ko'zini kamzulining chuqur cho'ntagiga bir amallab tiqib uyiga yo'l olibdi, lekin yarim yo'ldayoq sut to'kilib qolibdi.

— Yo Xudoyim! — deb hayqiribdi onasi. — Nega ko'zning boshingga qo'yib kelmading?

— Keyingi safar shunaga qilaman, — debdi Jek.

Payshanba kuni Jek fermerning oldiga borib bir to'llak sariyog'ga yollanibdi. Kechqurun sariyog'ni boshiga qo'yib uyiga jo'nabdi. Lekin uyiga yana quruq qo'l bilan qaytibdi: yumshoq sariyog' erib, sochiga yopishib qolibdi-da.

— Eh, nodon bola! — debdi onasi. — Sariyog'ni ehtiyotlab qo'lida keltirish kerak edi.

— Keyingi safar shunday qilaman, — debdi Jek.

Juma kuni Jek shirmonpazga yollanibdi. U xizmati o'vaziga katta bir mushuk beribdi. Jek mushukni qo'liga olib avaylab uyiga jo'nabdi, lekin mushuk qo'llarini timdalab yuborgani uchun uni qo'yib yuborishga majbur bo'libdi. Jek tag'in uyga so'ppayib kirib boribdi.

— Nega bunaqa merovsan-a? — debdi onasi. — Mushukning bo'ynidan ip o'tkazib yetaklab kelish kerak edi.

— Keyingi safar shunaga qilaman, — debdi Jek.

Shanba kuni Jek qassobga yollanibdi. Qassobning maxiyatiga tutib, unga butun boshli qo'y sonini beribdi. Jek sonni ip bilan bog'lab, sudrab uyga boribdi. Bunangani go'shtdan qanday ovqat tayyorlash mumkin?.. Bu safar onasi jahldan ko'karib ketibdi. Axir yeyishga uydakorandan boshqa hech vago qolmagan ekan-da.

— Eh, to'nka! — debdi Jekka. — Uni yelkangda ko'tarib kelishing kerak edi.

— Keyingi safar shunday qilaman, — debdi Jek.

Yakshanba kuni Jek tanbal uydan chiqib ketib, chorva bilan savdo qiladigan kishiga yollanibdi. U xizmat haqiqiga eshak beribdi. Eshakni yelkaga olishning o'zi bo'lmaydi, lekin Jek bir amallab bu ishini uddalabdi. Oyog'ini arang sudrab uyiga ravona bo'libdi. Yo'lida bir boyning uyi yonidan o'tishiga to'g'ri kelibdi. Boyning yulka-yu yolg'iz qizi bo'lib, juda go'zal ekan-u, lekin kung ekan, buning ustiga, umrida biror martayam kulmagan ekan. Tabiiyat boyga kimdir uni kuldirmagan.

cha hech qachon tilga kirmasligini aytgan ekan. Qiz derazadan qarab, eshakni yelkasiga ortmoqlab o'tib ketayotgan Jekka ko'zi tushibdi va xoxolab kula boshladi. Shunangangi kulibdiki, ichaklari uzilib ketay debdi va o'sha zahoti tilga kiribdi.

Boy sevinganidan qizini Jekka turmushga beringan qaror qilibdi. Shunday qilib, Jek tanbal boyib ketibdi, Tanballikdan ham qutibdi. Xotini va onasi bilan birga dangillama uyda to'kin-sochinlikda yashay boshlabdi.

UDDABURON BATRAK

(latish xalq ertagi)

B unlardan bir kun batrak⁵ otlarini o'tlashga qo'yib yuborib, ko'l bo'yida argon to'qib o'tirgan ekan. Ko'ldan alvasti chiqib kelib:

– Argonni nima qilasan? – deb so'rabdi.

– Tog'ni ko'lga ag'darib yubormoqchiman, – javob beribdi batrak.

– Itimos, bunday qilma! – deb yalinibdi alvasti. – Axir bunagada boshpanasiz qolaman-ku! Mana senga pul, faqat boyagi fikringdan qayt!

Batrak pulni olib alvastiga tog'ga tegmaslikka va'da beribdi.

– Kel, yaxshisi, – debdi alvasti, – kim balandroqqa olishini sinab ko'ramiz.

Batrak rozi bo'libdi. Alvasti ko'l tubidan hayhotdek keladigan bolg'a olib chiqib shunangangi balandga otibdi, bolg'a deyarli ko'rilmay ketibdi.

Navbat batrakka kelibdi. Lekin u bilibdiki, bolg'ani o'rnidan ham qo'zg'atolmaydi. Shunda ayyorlikni ishga solishga qaror qilibdi. Bolg'ani ushlab tepaga qarabdi va:

– Hoy osmondagilar! Bolg'ani sizga yetkaza olishim uchun oynani ochinglar! – deb qichqiribdi.

Buni eshitib alvasti batrakning oyog'iga yiqilib:

– Irg'itma, irg'itma! – debdi. – Bu axir ota-bobolarimdan qolgan mulk-ku!

Batrak jilmayib qo'lini bolg'adan olibdi.

– Kel, yaxshisi, – debdi alvasti, – ikkalamiz kurash tusha qolaylik.

⁵ Batrak – yollanna ishchi, xizmatkor.

Batrak rozi bo'libdi. lekin:

– Kurashib nima qildik? Baribir menga kuching yetmaydi. Yaxshisi, borib akam bilan kuch sinasha qol Balki, uni bir amallarsan, – deb qo'shib qo'yibdi.

– To'g'ri aytasan! – debdi alvasti.

Batrak unga botqoqlikdagi butalar ostida uxlab yotgan ayiqni ko'rsatibdi. Alvasti ayiq bilan olisha ketibdi, ayiq uning suyaklarini majaqlab tashlashiga bir bahya qolibdi. Shunda ham sira past ketgisi kelmasmish.

– Kel, yaxshisi, – debdi batrakka, – kimo'zargan chopishamiz.

– Sen bilan chopishib o'tiramanni? – debdi batrak. Baribir changimda qolib ketasan. Yaxshisi, ukam bilan chopisha qol.

– To'g'ri aytasan! – debdi alvasti.

Batrak unga do'nglikda uxlab yotgan quyonni ko'rsatibdi. Alvasti quyon bilan poyga o'ynabdi. Ko'z ochib-yumguncha quyon uni yarim yo'lga qoldirib ketibdi.

Shunda ham alvasti sira bo'sh kelay demasmish. U batrakni ko'l yoqalab sayrga taklif etibdi. Aylanishibdi, aylanishibdi, qarashsa, ikkita borona⁶ yotganmish.

– Bu nima? – deb so'rabdi alvasti.

– Otamning tarog'i, – deb javob beribdi batrak, – bu gun ertalab shu yerda yodidan chiqarib qoldirib ketgan ko'rinadi.

Alvasti:

– Vuy, otangning tarog'i namuncha katta? – debdi hayratlanib va boronaning birini o'ngdan, ikkinchisini chapdan sochiga sanchibdi.

Yana yo'lga davom etishibdi. Qarashsa, qirg'oqda ikkita qayiq turganmish.

– Bu nima? – deb so'rabdi alvasti.

– Otamning kavushi. Ertalab shu yerda yer hayda

qandilar. yumshatish uchun suvga solib qo'ygan ko'rinadi, – debdi batrak. Alvasti:

– Vuy, otangning kavushi namuncha katta? – debdi og'zi ochilib.

Yana sayr qilishda davom etibdilar. Hech gancha yurmalaridan momaqaldiroq gumburlabdi. Qo'rquvdan alvastining kapalagi uchib ketibdi. Batrak:

– Arzimagan narsadan cho'chishingni qara! Otam qo'shnilarni tushlikka taklif qilgandilar, qo'shni biyaning quluni doim ortda qolib ketadi, biya bolasini chaqiryapti, – debdi.

Alvasti sal o'ziga kelibdi. Shu payt momaqaldiroq yana gumburlabdi. Alvasti qo'rquvdan g'ujanak bo'lib olibdi. Batrak:

– Qo'rqmasang-chi, bu axir biya-ku, o'zingni qo'lga ol! – deb tinchlantiribdi.

Momqaldiroq uchinchi marta gumburlabdi, chaqqoq chaqqib alvastini nobud etibdi. Shu tariqa batrak og'lini ishlatib alvastidan qutulgan ekan.

⁶ Borona – tuproqqa yuza ishlov berish, qatqaloqni yumshatish uchun mo'ljallangan ish quroli.

EHTIYOJ

(bolgar xalq ertagi)

adim o'tgan zamonda bir o'tinchi chol yashagan ekan. Uning ikki nafar o'g'li bor ekan. Har safar o'rmonga ketayotib o'g'illaridan birini yordamchi qilib olvolarkan. Bir safar o'tinchi o'g'illariga:

– Dilbandlarim, bugun o'tin keltirish uchun o'rmonga o'zingiz borasiz, men uyda qolib dam olaman, juda holdan toydim, – debdi.

– Lekin, ota, – deyishibdi yigitchalalar, – mabodo arava sinib-netib qolsa, uni tuzatishga kim yordamlashadi?

– Bunaga vaziyatda, – debdi keksa o'tinchi, – ehtiyojni chaqiringlar, u sizlarga yordam qo'lini cho'zadi.

O'g'illar xo'p deb ho'kizlarni aravaga qo'shib o'rmonga yo'l olishibdi. O'rmonga yetib borib ho'kizlarni bo'shatib o'tlashga qo'yib yuborishibdi va boltalarni olib daraxt kesishga kirishishibdi. Ko'z ochib-yumguncha aravani o'tinga to'ldirishibdi va uyga qaytishibdi. Baxtga qarab, yarim yo'lda arava lop etib buzilib qolibdi. Yigitchalalar aravadan tushib bor ovoza:

– Ehtiyoj! Hoy ehtiyoj! Aravamizni sozlab ber! – deb chinqirishibdi.

Ming baqirib-chaqirsalar-da, hech zog' ularga javob qaytarmabdi. Qosh qoraya boshlabdi, ehtiyoj deganlari gorasini ko'rsatay demasmish. Shu tariqa qorong'i tushibdi. Aka-uka bir-biriga qarab:

– Yaxshisi, qo'ldan kelganча aravani o'zimiz tuzataylik! – deyishibdi.

So'ng yeng shimarib ishga kirishibdilar, hash-pash

deguncha arava tuzalibdi. Uyga qaytganlari zahoti otalari:

– Xo'sh, qalay? Yaxshi borib keldinglarmi? – deb so'rabdi.

– Eh, otajon, so'ramang, – debdi yigitlar. – Yarim yo'lda aravamiz buzilib qolsa bo'ladimi! Biz ehtiyojni rosa chaqirdik. Baqiraverib ovozimiz bo'g'ilib qalay dedi, lekin undan darak bo'lmadi. Shunda uning kelmasligini tushunib yetdik va qo'limizga asbob olib bir amallab aravani tuzatdik.

– Aynan mana shu ehtiyojning o'zidir! – debdi otasi. Sizlar uni rosa chaqiribsizlar, u esa hamisha yoningizda bo'lgan. Aravani tuzatadigan boshqa birov yo'qligi uchun o'zingiz ishga kirishgansiz. Demak, sizni ehtiyoj shunga majbur qilgan!

OQILA QIZ

(uygʻur xalq ertagi)



adim oʻtgan zamonda bir keksa xon yashagan ekan. Uning yakka-yu yagona oʻgʻli boʻlib, baxtiga qarshi, u ham dovdirroq ekan. Xon juda qaygʻuga botib: «Men olamdan oʻtgandan keyin nima boʻladi, axir, oʻgʻlim xonlikni boshqarolmaydi-ku. Unga esli-hushli kelin topsam edi! Aglli xotin bilan bir amallashi mumkin», — deb oʻylabdi. Bir kuni xon shahzodaga:

— Oʻgʻilginam, agar mening oʻrimga taxtga oʻtirish niyatig boʻlsa, safarga oltan, oʻn yoshli ulogcha, yigirma yoshli boʻri, oʻttiz yoshli tulki, qirq yoshli yoʻlbars, ellik yoshli it va oltmish yoshli tuyani qidirib topib kel. Uygʻa quruq qoʻl bilan gayta koʻrma! — debdi.

Ahmoq shahzoda aytilgan narsalarni qidirib yoʻlga chiqibdi. Shahar va qishloqlarni aylanib, hamma joyda yigirma yoshli boʻri bor, sotib olaman! Oʻttiz yoshli tulki xarid qilaman! Qirq yoshli yoʻlbars xarid qilaman! Ellik yoshli it xarid qilaman! Oltmish yoshli tuyaga xarid qilaman! — deb qichqiraveribdi.

Xalq shahzodaning ustidan qotib kulibdi. «Bu tentak nimani soʻrayapti? Oʻn yoshli ulogcha boʻlishi mumkinmi? Axir bu yoshda u qari echkiga aylanib ulguradi-ku! Kimda yigirma yoshli boʻri boʻlishi mumkin? Umuman, boʻrining yigirma yoshga kirganini qayerdanan bilish mumkin? Oʻttiz yoshli tulki-chi, qirq yoshli yoʻlbars-chi, ellik yoshli it-chi, oltmish yoshli tuyaga-chi? Nahotki, bu jonivorlar shuncha uzoz yashasa? Yashagan taqdirda ham ularning yoshini aniqlab boʻlarmidi?» — deb oʻyladi.

ahibdi. Shahzoda esa koʻchama-koʻcha yurib ovozining boricha:

— Yigirma yoshli boʻri sotib olaman! Oʻttiz yoshli tulki sotib olaman!.. — deb baqirishda davom etibdi.

Bir uyning yonida qandaydir qiz oʻtirgan ekan. U:

— Hoy yigitcha, nega qichqirasan, senga nima kerak? — deb soʻrabdi.

Shahzoda otasining topshirigʻi haqida gapirib beribdi. Qiz:

— Otang seni sinamoqchi boʻlgan. Oʻn yoshli ulogcha oʻn yoshli bola degani. U ulogcha kabi shoʻx-shaddod boʻladi. Yigirma yoshli boʻri yigirma yoshli yigit degani. U orzu-umidlarga toʻla, xuddi boʻri kabi haris boʻladi. Oʻttiz yoshli tulki oʻttiz yoshli erkak degani. Uning tafakkuri kamolotga yetadi va ayyor tulkiga oʻxshab qoladi. Qirq yoshli yoʻlbars qirq yoshli erkak degani. U kuch-quvvatining choʻqqisiga chiqadi va yoʻlbarsdek qudratga erishadi. Ellik yoshli it ellik yoshli odam degani. Bu vaqtga kelib u yaxshigina mol-dunyo toʻplaydi va uni itdek erta-yu kech qoʻrtiqlaydi. Oltmish yoshli tuyaga esa oltmish yoshli odam degani. Uning koʻzlari xira tortadi, uni tuyaga kabi yetaklab yurishga toʻgʻri keladi, — debdi.

Shahzoda bu javobdan mamnun boʻlib saroyga qaytibdi.

— Xoʻsh, — deb soʻrabdi xon, — men buyurgan narsalarni qidirib topdingmi?

— Ha, otajon, topdim, — debdi shahzoda va xonga qizning soʻzlarini aytib beribdi.

— Buni oʻzing bildingmi yoki kimdir koʻmaklashib yubordimi?

— Oʻzim topganim yoʻq, bir qiz tushuntirib berdi.

— Oʻsha qiz juda oqila ekan. Unga uylanishing kerak, — debdi keksa xon.

Shunday qilib, aqli qiz xonning keliniga aylanibdi. Xonning oʻlimidan keyin esa eriga mamlakatni boshqarishda yordam beribdi.

EZGU MASLAHAT

(fin xalq ertagi)



adim zamonda bir yetim yigitcha yashagan ekan. U nihoyatda faqir bo'lib, ochlik kundalik hamrohi ekan. Bir kuni u biror yegulik topish ilinjida safarga otlanibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, kechasi ochlig-u charchoqdan sillasi qurib o'rmon ichkarisida qolib ketibdi. Bir payt qarasa, allaqanday qush tuzoqda tipirchilayotganmish. Bola:

– Zo'r bo'ldi, endi o'zinga ovqat tayyorlayman, – deb sevinib ketibdi. Shu payt qush tilga kirib:

– Meni nobud qilma, ey yo'lovchi, – debdi. Yigitcha juda mehribon ekan, shu bois qushga rahmi kelib qo'yib yuboribdi. Qush ganot yozib:

– Minnatdorchilik yuzasidan senga bir gap aytaman. Mana shu so'qmoqdan boraversang, yo'lda bir eman daraxti bor, unga chiqib tunni o'sha yerda o'tkaz. Shunda nima bo'lishini o'zing ko'rasan, – debdi.

Yigitcha so'qmoq bo'ylab yurib emanni topibdi, unga chiqib o'tiribdi. Bir mahal uning qulog'iga allaqanday suhbat chalibdi. Qarasa, uchta gnom⁷ gaplashayotgan ekan.

– Eshitinglarmi? – debdi birinchi gnom. – Qirol bog'idagi soy qurib qolibdi, ilgari unda shunagan-gi zilol suv ogardiki! Kimdir soy bo'yida o'sgan qayrag'ochni ag'darib, ildizini kovlab tashlasa, suv yana qaytadi.

⁷ Gnom – G'arbiy Yevropa afsonalarida badboshara, sersopqol mitti odam.

– Men ham bir sirni bilaman, – debdi ikkinchi gnom. – Qirol o'rmonida ilgari bug'ular juda ko'p edi, hozir esa birorta ham qolmagan. Qirol bug'ular saroy bog'i darvozasidagi bug'u shoxidan qo'rqishini bilmaydi. O'sha shoxni kimdir olib tashlasa, bug'ular tezda o'rmonga qaytadi.

– Men ham u-bu narsani bilaman, – debdi uchinchi gnom. – Qirolning yakka-yu yagona gizi uzoz yillardan beri betob. Birorta tabib uni davolay olmadi. Quyosh botishidan avval gizni bog'ga olib chiqib yuziga shudring so'pilsa, malika o'sha zahoti sog'ayadi.

Gnomlar shundan keyin ketibdi. Yigitcha ertalab daraxtdan tushib qirol saroyiga yo'l olibdi.

– Meshkob bo'lib ishlashni istamaymanmi? – deb taklif bildirishibdi unga. – Hozir saroyga suvni uzozlardan tashib keltiryapmiz. Ilgari bog'da soy ogardi, endi esa qurib qolgan.

Yigitcha soy joylashgan yerni ko'zdan kechirib qayrag'ochni ko'ribdi va:

– Manavi qayrag'ochni ag'darib tomiri kovlansa, yana suv oqa boshlaydi, – debdi.

Qayrag'ochni ag'darib tomirini kovlab tashlashibdi, shu zahoti yana zilol suv oqa boshlabdi. Qirol yigitchani yoniga chaqirib:

– Bug'ularni ortga qaytarish yo'lini bilmaysanmi? – deb so'rabdi. – Ilgari ular to'da-to'da bo'lib sayr qilib yurishardi, endi esa qoralari ham ko'rsatishmaydi.

– Bundan oson ish yo'q, olampanoh, – deb jilmayibdi yigitcha. – Faqat bog' darvozasidagi bug'u shoxini olib tashlash kerak, xolos.

Qirol zudlik bilan shoxni olib tashlashni buyuribdi va bug'ular o'rmonga qaytibdi.

– Sen yaxshi maslahatchi chiqib qolding, – debdi qirol mehr bilan. – Qizimni og'ir darddan qutqarishga yordam berolmaysanmi? Boyoqish anchadan beri kasal.

– Malikani quyosh botishi arafasida bog'ga olib borish va yuziga shudring sepish kerak, – debdi yigitcha, – shunda otdak bo'lib ketadi.

Qirol malikani bog'ga olib boribdi va yuziga shudring sepibdi, qiz o'sha zahoti tuzalibdi. Qirol yigitga qanday minnatdorchilik bildirsam ekan deb o'ylanib qolibdi.

– Saroyda biz bilan qol, – debdi unga. – Mening bosh maslahatchim bo'lasan.

O'shandan boshlab yigitcha saroyda umrining oxirigacha rohat-farog'atda umrguzaronlik qilibdi.



EZGU MASLAHAT



SHER BILAN SICHQON

SHER BILAN SICHQON

(kurd xalq ertagi)

Qadim zamonda bahaybat sher bilan jajigina sichqon qo'ni-qo'shni yashagan ekan. Sher nihoyatda takabbur va manman ekan. O'rmonda sayr qilib yurganida bironi nazar-pisand qilmas, hech kimning salomiga javob gaytarmas ekan. Sichqon bir kuni qo'shnisini ko'rib salomlashish maqsadida uning is-tiqboliga shoshilibdi.

«Hayvonlar shohi bo'la turib allaganday sichqon bilan salom-alik qilish menga yarashmaydi», – deb o'ylabdi sher va indamay sichqonning yonidan o'tib ketibdi. Sichqonga qo'shnisining bunday qilg'i og'ir botibdi. Shundan keyin unga ro'baro' kelishdan qochadigan bo'libdi.

To'satdan sher ko'rinmay qolibdi. Bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi – sherdan darak bo'lmabdi. «Qo'shnim og'rib qolgan ko'rinadi», – deb o'ylabdi sichqon. Uchinchi kuni undan xabar olishga qaror qilibdi. «Qo'shnim juda takabbur bo'lsa ham, uni og'ir kunda yolg'iz qoldirish yaxshimas», – degan xayolga boribdi. So'ng sherining inga qarab yo'l olibdi, birdan qulog'iga allakimning ingragan ovozi chalinibdi. Yugurib borib qarasa, sher so'qmoqda og'riqdan yuzini burishtirib yotganmish.

– Qo'shnijon, senga nima bo'ldi? – so'rabdi sichqon.

– Falokat oyoq ostida deganlaridek, qopqonga tushib qoldim, uch kundan beri urinib undan qutulolmadim. Qopqon daraxtga argon bilan chandib bog'langan. Agar ovchilar kelsa meni tirik qo'yishmaydi. Qo'shni, iltimos,

mennga yordam ber, argonni kemirib uz. Yaxshiligingni sira unutmayman! – debdi sher.

Sichgonning rahmi kelib o'tkir tishlari bilan argonni kemiribdi va sherni qopqondan qutqaribdi. O'sha kundan boshlab sher sichgonning yonidan yuz o'girib o'tmaydigan, aksincha, o'zi birinchi bo'lib salomlashadigan bo'libdi.

MINNATDOR TULKI

(turk xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda kichkinagina qishloqda bir tegirmonchi bor ekan. U yangi so'yilgan tovuq go'shtini yaxshi ko'rarkan. Shuning uchun uning katagidan besh-oltita tovuq ari-mas ekan.

Kunlardan bir kun ayyor tulki katakka kirib ham-ma tovuqlarini yeb ketibdi. Tegirmonchi yana bir qancha tovuq sotib olib kelib katakka qamabdi. Tulki ularni ham sarajonlabdi. Tegirmonchi o'g'ini qanday tutsam ekan deb kecha-kunduz bosh qotiribdi. U o'ylay-o'ylay axiri bir yo'l topibdi. O'ra kovlab tovuqlarni o'shanga qamabdi.

Kechasi tulki yana kelibdi. Qarasa, katak bo'sh emish. Tulki sinchiklab u yoq-bu yoqqa yugurib tegirmonchi tovuqlarni o'raga qamab qo'yganidan xabar-dor bo'libdi. Sakrab o'raga tushibdi. Qarasa, tushgan joyi jahannam, omon-eson chiqib ketishning sira iloji yo'q. U tegirmonchining qahridan qo'rqib tovuqlarga tegmabdi.

Erta bilan tegirmonchi o'ra boshiga kelganida:

– Baraka topkur, meni o'ldirmal – deb yalinibdi tulki. – Mening bu yerdan chiqib ketishingga yordamlashib yubor, sendan o'la-o'lguncha minnatdor bo'lib yuraman.

Tegirmonchining qabri kelib:

– Hu ayyor maxluq, – deb o'shqiribdi. – Sen qanchadan qancha tovuqlarini qiyratib yubording. Endi bo'lsa minnatdorchilikdan gapirasan!

Tulki yalinaverib uni holi-joniga qo'yabdi. Tegirmonchi ko'ngilchanlik qilib uni o'radan chiqaribdi. Ular tegirmonning oldigacha birga borishibdi.

— Endi sen menga ozroq kumush tanga ber, o'zing meni shu yerda kutib tur, — debdi tulki.

Tegirmonchi unga pul beribdi. Tulki pulni olib to'ppa-to'g'ri hind podshosining qasriga boribdi-da, darvozani taqillatibdi. Podshoning xizmatkorlaridan biri chiqib darvozani ochibdi.

— Un podshosi sizning podshohingizga ko'pdan ko'p salom deb yubordi, — debdi tulki. — Podshohimiz o'zining hamma kumush tangalarini hisoblab ko'rmogchi. Shunga podshohingiz o'zining kumush tangalar o'lchaydigan tarozisini berib turmasmikin? Bo'shagani zahoti darrov qaytarib olib kelardim.

Xizmatkor ichkari kirib ketib, birozdan keyin tarozini olib chiqib beribdi. Tulki tarozini olib bir necha kun atrofda aylanib yuribdi-da, yana hind podshosining qasriga qaytib kelibdi. U taroziga tegirmonchidan olgan kumush tangalarini solib xizmatkorning qo'lga berarkani — Marhamat, tarozingizni oling. Un podshosi sizlarga katta rahmat aytdi, — debdi.

— Buning ichida kumush tangalar nima qilyapti? — deb so'rabdi xizmatkor.

— Mening podshohimda bunagangi tangalar tog'dek uyulib yotibdi, — deb javob beribdi ayyor tulki. — Uni o'lchaganida taroziga yopishib qolgandir-da, hechqisi yo'q. Bu bilan shohning davlati kamayib qolmaydi. Tulki tegirmonchining oldiga qaytib kelib bir-ikkit kun dam olibdi-da, keyin:

— Yana menga besh-olti lira oltin ber, — debdi.

— Sen meni xonavayron qilmogchiga o'xshaysan, — debdi qizishib tegirmonchi. — Bundan keyin senga sariq chaga ham bermayman!

— Baxillik qilma, hurmatli podshohim, — debdi tulki uni ko'ndirishga urinib. — Hozirchalik senga nimalar

qilib berishimni xayolingga ham keltirolmaysan. Menga biroz oltin lira bera qol.

Tulki tegirmonchidan ozroq oltin lira olibdi-da, to'ppa-to'g'ri borib yana hind podshosining darvozasini taqillatibdi. Xizmatkor chiqib darvozani ochibdi.

— Bu safar oltin liralari o'lchaydigan tarozingizni berib tursanglar, — debdi tulki. — Buning Un podshohimiz o'zining oltinlarini o'lchab ko'rmogchi. Bo'shagan zahoti olib kelib beraman.

Tulki tarozini olib, bir necha kun o'rmonda aylanib yurib, keyin tegirmonchidan olgan oltinlarni taroziga solib hind podshosining qasriga etibdi.

— Buning ichida oltinlar nima qilyapti? — deb so'rashibdi xizmatkorlar.

— Podshohimizning ombori to'la oltin tanga, — deb javob beribdi tulki. — O'shalarni o'lchagandi. Shunda yopishib qolgandir-da. Bu bilan uning davlati kamayib qolarmidi!

Tulki tegirmonchining oldiga qaytib kelgan ekan, u fig'oni chiqib:

— Senga bergan oltin-kumush tangalarim qani? — deb baqiribdi.

— Biroz sabr qilgin, — debdi tulki. — Avval chaqmog chagadi. Keyin momaqaldiroq bo'ladi.

Oradan bir necha kun o'tgach tulki shaharga tushib jarchiga debdi:

— Hammaga xabar qil. Biz hind podshosining qizini kiga sharobxo'rlikka ketyapmiz. Kim biz bilan borishni istasa safar taraddudini ko'raversin.

Jarchi ham:

— Un podshosi bilan jo'nashni istaganlar uch kundan keyin falon joyda tayyor turishsin, — deb jar chaqiribdi.

Belgilangan kuni podshoning ziyofatini yeb, sharobini ichishni istaganlardan ellik ming oltiq yig'ilib yo'lga tushibdi. Oldinda tulki yo'l boshlab boribdi.

Zo'r tantana bilan ketayotgan otiqlar besh kun deganda katta ko'l bo'yiga yetib borishibdi. Havo bulut ekan. Birdan jala quyib hammaoqni shalabo qilib yuboribdi. Ba'zi otlar tik sohilda yurolmay, sirg'anib ko'lga tushib ketibdi. Bir qancha otiq g'arq bo'libdi. Tulki omon qolganlarning hammasini yig'ib hind podshosining qasriga olib boribdi. U yugurib borib podsho huzurida ta'zim bajo keltiribdi-da:

— Janobi oliylari, yo'lda kela turib dahshatli jaladan arang omon qoldik. Otlarga ortib olib kelayotgan qanchadan qancha bebaho buyumlarimiz nest-nobud bo'ldi, — debdi.

Hind podshosi avvaliga nima gapligini tushunolmad. So'ng:

— Hoziroq saroy tikuvchisining oldiga boringlar. Zarar ko'rganlarga yangi liboslar tikib bersin, — debdi.

Tikuvchilar ishga tushib ketishibdi. Kelgan mehmonlarning ko'pchiligi yangi libos olibdi. Tulkining buyurtmasiga ko'ra Un podshosiga ham qimmatlab ho matodan kiyim tikib berishibdi. Tikuvchilar libos tikishayotganida mehmonlar podshoning bog'iga kapa tikib o'rnatib olishibdi. Shunda podsho hayron bo'lib:

— Bu kelganlar kim? — deb so'rabdi.

Tulki zo'r ehtirom bilan uning huzurida ta'zim bajo keltirib:

— Bular Un podshosining mulozimlari, — debdi. Keyin kelgan odamlarning oldiga qaytib: — Boringlar, men sizlarga qanday o'rgatgan bo'lsam, xuddi shunday qilib podshoning qizini so'ranglar, — deb shivirlabdi.

Besh-oltita e'tiborli odamlar oldinga chiqib:

— Biz sizning huzuringizga qizingizni Un podshosiga berishingizni so'rab keldik, shunga nima deysiz? — deyishibdi.

Hind podshosi hayron bo'lib qolibdi.

— Taqdir qilgan bo'lsa, bersam berarman. Men nima ham derdim, — debdi u.

Keyin podsho mehmonlarni eng mazali yeguliklar bilan siylashni buyuribdi. Ziyofatni yeb mehmonlar uyalariga qaytadigan bo'lishibdi:

— Biz katta qilib to'y qilmogchi edik, — debdi tulki podshoga. — Lekin bu yozga kelayotganimizda, aytganimdek, yo'lda ko'p narsalarimiz nest-nobud bo'ldi...

Hind podshosi uning so'zini kesib:

— Hechqisi yo'q! Biz albatta Un podshosidan ko'ra kambag'alroqimiz. Lekin shu yerda ham yaxshilab to'y-tomosh qilishga qurbimiz yetadi, — debdi.

Shu zahotiyoz to'yga tayyorgarlik boshlanib ketibdi. To'y qirq kecha-yu qirq kunduz davom etibdi. Hind podshosi minglab kishilarga oltin-kumushlar tikilgan kimxob to'nlari kiygizishni buyuribdi.

Oxiri Un podshosiga ham navbat kelibdi.

— Xo'sh, qalay, senga bular yozqimi? — debdi tulki sekingina uning yoniga borib.

— G'oyatda mamnunman! — debdi tegirmonchi.

To'y tugabdi. Bir necha kundan keyin kelin-kuyov qaytadigan bo'lishibdi. Podshoning ko'pgina mulozimlari ham ular bilan birga yo'lga chiqibdi. Yana tulki hammani boshlab boribdi.

Ayyor tulki oldinda keta turib o'tloqda bir talay tuyabog'ib yurgan kishilarni uchratibdi. Tulki ularga:

— Yo'lda kelayotgan odamlarni ko'ryapsizlarmi? — debdi.

— Ko'rishga-ku ko'ryapmiz, lekin ular kimlar ekanini bila olmadik, — deyishibdi podachilar.

— Bo'lmasa, bilib qo'yinglar, ular sizlarni talash uchun kelishyapti, — debdi tulki. — Bordi-yu sizlardan: «Bu tuyalar kimniki?» — deb so'rashsa, «Un podshosi janobi oliylarini-ki», — deb aytinglar. Shunda sizga tegishmaydi, — debdi.

Dabdaba bilan kelayotgan kishilar tuyabog'uvchilarning oldiga borib:

– Bular kimning tuyasi? – deb soʻrashibdi.

– Bu tuyalar bizning hukmdorimiz Un podshosiga tegishli, – deyishibdi tuya boquvchilar.

Ular yoʻlda davom etishibdi. Tulki yana oldinda boʻribdi. Yoʻlda u qoʻy-sigir bogʻib yurgan choʻpon va podachilarni uchratibdi.

– Hov yoʻlda kelayotgan odamlarni koʻryapsizlarmi? – debdi tulki. – Ular sizlarni talamogʻchi boʻlib kelishayapti. Bordi-yu ular bu mollarning kimlikligini soʻrab qolishsa, «Bizning xojamiz Un podshosi janobi oliylarini», – deb aytinglar. Shunda sizlarga tegishmaydi.

Podachi va choʻponlar tulkining aytganidek qilishibdi. Shunday qilib, hind podshosining mulozimlari podshoning qizi bilan kuyovini kuzatib boraverishibdi. Tulki yana oldinga tushib yuguribdi. Uzoqdan unga devlar qasri koʻrinibdi. Devlar shu paytda qattiq uyquda ekan. Ayyor tulki sekingina qasrning oldiga borib uning atrofidan oʻt qoʻyib yuboribdi. Devlar kuyib ketishibdi. Tulki tezda orgasiga qaytib lovullab yonayotgan qasrni koʻrsatib:

– Mayli, xafa boʻlmanglar! Yaxshiyamki, biz uning ichida emasmiz. Aks holda, oʻzimiz ham qoʻshilishib yonib ketardik. Lekin, afsuski, butun boyligimiz oʻsha yerda edi. Uni qutqarib qololmadik, – debdi.

Shoh qizini kuzatib kelayotgan mulozimlar qasrning kuyib kul boʻlganini koʻrishibdi.

Hind podshosi xuddi oʻsha yerga qizi bilan kuyoviga atab muhtasham saroy qurdirib beribdi. Qasrni qimmatbaho buyumlar bilan toʻldiribdi. Shunday qilib, mehmonlar oʻn toʻrt kun shu yerda turishibdi-da, keyin uy egalari bilan xayrlashib oʻz yurtlariga qaytib ketishibdi. Qasrda esa tegirmonchi Un podshosi, hind podshosining qizi hamda ayyor tulki birga yashay boshladilar.

Oradan yillar oʻtibdi. Kunlardan bir kun tulki mingʻillab:

– Tobim qochibroq turibdi. Oʻlib qolmasam goʻrgaydi, – debdi.

Ertasiga xizmatkorlar borib qarashsa, u oʻlib yotgan emish. Kelib podshoga:

– Janobi oliylari, tulkingiz olamdan oʻtibdi, – deyishibdi. Un podshosi sovuqgonlik bilan:

– Qasrdan olib chiqib uloqtiringlar, – debdi.

Xizmatkorlar endi podshoning aytganini qilishmoqchi boʻlishgan ekan, tulki iringib oʻrnidan turib:

– Senga shuncha yaxshilik qilsam-u, meni uloqtirib yuborishni buyurdingmi? – deb baqiribdi.

Un podshosi qah-qah urib kulib:

– Men sening oʻlmaganingni bilardim, – debdi.

Bir necha kundan keyin tulki chindan ham jon beribdi. Podsho u yana hiyla qilayotgan boʻlsa kerak deb oʻylabdi-da, oldiga kelib sekin chaqiribdi:

– Tulkiyoy, tulkinginami!

Biroq tulki javob bermabdi. Shunday qilib, tulkini zoʻr hurmat bilan dafn etishibdi.

Tegirmonchi podshoning qizi bilan umrining oxirigacha muhtasham qasrda yashabdi. Bu tulkining unga minnatdorchilik yuzasidan qilgan yordami ekan.

ENG MOHIR LOFCHI

(Yapon xalq ertagi)

 adim zamonda Edo, Osaka va Kioto shaharlari da uchta mashhur lofchi yashagan ekan. Uchchilasi bir joyga yig'ilib qolsa bormi, o'sha zahoti lof urishni boshlab yuborisharkan. Biri:

— Yaqinda osmoni yerdan uzib oldim va burnimning teshigiga tiqib qo'ydim! Eshityapsizmi, hushtak chalyapti! — debdi. Ikkinchisi:

— He, shu xolosmi? Keeha ermak uchun yer bilan osmonni chertib o'tib o'ynayotuvdim, qo'qisidan aksirib yuboribman, ikkalasi ham uchib ketdi! — debdi. Uchinchisi ham bo'sh kelmabdi:

— Bir necha kun avval quyosh rosa qizdirdi, shunda butun olamni boshimga kiyib oldim, shu tariga o'zimni soyaga olishga erishdim.

Lekin ular ming chiransalar-da, eng mohir lofchi kimligini aniqlashтира olmabdi.

Bir kuni kiotoilik va edolik lofchilar osakalik lofchining uyiga mehmonga yo'l olishibdi. Ularning istiqboliga lofchining kichkina o'g'li chiqib kelib:

— Dadam uyda yo'q edi! — debdi.

— Xo'sh, qayogga ketdi? — deb so'rashibdi lofchilar.

— Aytishicha, yaqinda to'fon Fudzi tog'ini ag'darishiga bir balya qolibdi, joyida arang osilib turganmish. O'shani ikkita tayog'cha bilan to'g'rilab qo'ygani ketdi.

— Onang qayerda?

— Onam aytdiki, butun Hind yeri so'kilib ketibdi, o'zi bilan uchta igna olib uni yamagani ketdi.

Ikkala lofchining og'zi ochilib qolibdi. Orqa-oltiga qaramay qochib qolgilari kelibdi-yu, lekin g'urur qo'ymabdi.

— Hoy bola, yaqinda bo'ron ulkan tosh hovonchamizni uchirib ketuvdi, o'sha sizlarnikiga tushmadimi? — so'rashibdi ular.

— Bo'lsa bordir, — debdi bolakay. — Qarab ko'ringlar-chi, oyna ostidagi o'rgimchak to'riga ilashib qolmadimkin.

Ikkalasi ham tilini tishlab tuyog'ini shiqillatib qolibdi. Shu payt lofchi uyga qaytibdi. Bolakay:

— Hozirgina kiotoilik va edolik amakilar kelib ketdi, — debdi.

— Rostdanimi? Xo'sh, keyin nima bo'ldi? — so'rabdi otasi.

— Ular mendan: «Otang qani?» — deb so'rashdi. «Fudzi tog'i arang joyida turibdi, to'fon urgan ko'rinadi, otam ikkita tayog'chani olib uni to'g'rilagani ketdi», — dedim. «Onang qayerda?» — deb so'rashdi. «Hind yeri so'kilib qolibdi, onam uchta igna olib uni yamagani ketdi», — dedim. «Bizning tosh hovonchamiz sizlarnikiga tushmadimi?» — deb so'rashdi. «Qaranglar-chi, ehtimol, o'rgimchak to'riga ilashib qolgandir», — deb javob berdim. Shunda sharmisor bo'lib qochib qolishdi, — debdi.

Otasi bu gapdan dahshatga tushibdi.

— Bola bo'la turib yuzingda ko'zing bormi demay yolg'on gapirasan-a! Endi bu uyda yashamaysan, seni biror joyga oborib tashlaganim bo'lsin, — debdi.

So'ng o'g'lini qanor gopga solibdi va yelkasiga ortmoqlab yo'lga tushibdi. Yo'lda tamaddixonona uchrabdi. Ichkaridan ovqat hidi kelib, ishtahasi ochilibdi. Ota qopni qayrag'och shoxiga ilib ovqatlangani ketibdi. Bu paytda kichik lofchi qopning teshigini topib tashqarini kuzata boshlabdi. Qarasa, bir bukhaygan chol oyog'ini arang sudrab kelayotganmish. Shunda bolakay xuddi duo o'qiganday qilib:

— Qariya, yosharl! Qariya, yosharl! — deyaveribdi.

– Qopning ichida nima qilyapsan? – deb soʻrabdi chol.

– Bu oddiy qop emas, sehrli qop. Uning ichiga kirib: «Qariya, yashar! Qariya, yashar!» – deb duo oʻqisa har qanday odam yosharib qoladi. Bugun ertalab oltmish yoshli chol edim, qopning ichiga kirib uzor vaqt duo oʻqidim. Endi, koʻrib turganingizdek, oʻspiranga aylandim.

Hayratdan choling koʻzlari olayib ketibdi.

– Qanday ajoyib qop ekan-a! Men ham yosharishni istayman! Uning ichiga kirishimga ruxsat ber!

– Mayli-yu, lekin tekinga mushuk oftobga chiqmaydi-da.

– Xohlasang, manavi mazali mandzyularni⁹ senga berishim mumkin.

Bolakay mandzyuni olib cholni oʻzining oʻrniga qopning ichiga oʻtqizibdi va uyiga qarab qochib qolibdi.

Tez orada katta lofchi tamaddixonadan kayfi chogʻ boʻlib chiqibdi. Qarab koʻzlarga ishonmabdi: qopning ichida oʻgʻlining oʻrniga allaganday chol oʻtirib olib: «Qariya, yashar! Qariya, yashar!» – deyotganmish. Lofchi hayron boʻlibdi, voqeaning mohiyatini tushunib yetgach gangib qolibdi.

– Voy, yaramas! Sizni lofchi oʻgʻlim laqillatibdi. Itimos, kechiring, maʼzur tuting, – deb cholni qopdan chiqaribdi.

Soʻng uyiga qaytib boribdi. Qarasa, oʻgʻli allaqachon uyga yetib kelib mandzyuni paqos tushirayotganmish. Katta lofchi kichik lofchini ushlab yana qopning ichiga joylabdi.

– Qarab tur, yaramas! Bu safar adabingni berib qoʻyaman! – deb boshqa yoʻl bilan yuribdi. Lekin bu yoʻlda ham tamaddixona chiqib qolibdi. Uning yonidan oʻtib ketishga koʻngli boʻlmabdi. Tagʻin qopni qaragʻay shoxiga ilib ovqatlangani ketibdi.

Bola qopning teshigidan moʻralab qarasa, koʻzi xira

tortgan kampir kelayotganmish. Uning yaqinroq kelishini kutib turibdi-da, «Koʻzlarim, ochiling! Koʻzlarim, ochiling!» – deysigga tushibdi.

Kampir hayron boʻlib qopning yoniga kelibdi va:

– U yerda nima qilyapsan? – deb soʻrabdi.

– Nima qilyapsan deganingiz nimasi? Sehrli qopda oʻtirib duo oʻqiyaman. Ertalabdan beri shu duoni takrorlayman, mana, koʻzlarim yaxshi koʻra boshladi. Ilgari butunlay koʻr edim, – debdi.

– Eh, ajoyib qop ekan-da! Mening ham koʻzlarim juda xira, jilla qursa, bir daqiqaga ichkariga kirib oʻtirishimga ruxsat bermaysanmi? – debdi kampir.

– Nega endi ruxsat bermas ekanman, lekin tekinga mushuk oftobga chiqmaydi-da!

– Yonimda xurmo bor, hammasini senga berganim boʻlsin, faqat meni qopga kirit.

Kampir bolaga bir savat xurmo beribdi, bolakay uni qopga oʻtirgizib oʻzi uyga qarab juftakni rostdabdi.

Tez orada katta lofchi tamaddixonadan kayfi chogʻ boʻlib chiqibdi. Qarasa, qopda allaganday kampir oʻtirib: «Koʻzlarim, ochiling! Koʻzlarim, ochiling!» – deyotganmish. Lofchi hayratdan qotib qolibdi, voqeaning tagiga yetgach hayrati yanada ortibdi.

– Bularning bari uchiga chiqqan lofchi oʻgʻlimning nayrangli! Itimos, ayt eting! – deb kampirni qopdan chiqaribdi.

Soʻng uyiga qaytib boribdi. Nimani koʻribdi deng. Oʻgʻli xurmoni toʻyib yeb xurrak otib uxlab yotganmish. Bunaga bolani nimayam qilish mumkin!

Oʻshandan buyon edolik, osakalik va kirotolik lofchilar eng mohir lofchi kim degan masalada qayta bahslashibmabdi.

⁹ Mandzyu – shirin kulcha.

MUNDARIJA

Qayrag'och, toshbaga va yo'lbars (xitoy xalq ertagi).....	3
Yomonlik qilib yaxshilik kutma (kabardin xalq ertagi)	7
Uch ho'kiz (turkman xalq ertagi)	9
Olima, pish, og'zinga tush (moldovan xalq ertagi)	12
Yalmog'iz kampir	21
Qanoati chumoli	26
Hayvon tili (serb xalq ertagi)	27
Aldar va uning xotinlari (osetin xalq ertagi)	32
Bo'ri, it va mushuk (sloven xalq ertagi)	34
Qushcha bilan fil (hind xalq ertagi)	39
Yigitcha bilan igna (efiop xalq ertagi)	41
Ilmning foydasi (makedon xalq ertagi)	42
Ota o'g'iti (tatar xalq ertagi)	51
Ahmoq do'st dushmaniga teng (algon xalq ertagi)	53
Mushuk va maymunlar (indonez xalq ertagi)	57
Uch xil orzu (alban xalq ertagi)	60
Podshoni chuv tushirgan qiz (chernogor xalq ertagi)	63
Aka-ukalar (avar xalq ertagi)	67
Sherini o'ldirgan tulki (sudan xalq ertagi)	69
Dehqonning ikki senyorni boplagani (ispan xalq ertagi)	75
Ikki qo'shni (ozarbayjon xalq ertagi)	78
Sodda dahqonning omadli savdosi (nemis xalq ertagi)	84
Qochoq pirog (belorus xalq ertagi)	89
Kalondimog' ko'rshapalak (amerika xalq ertagi)	93
Uch abjur o'g'il (fransuz xalq ertagi)	95
Ochko'z ayiqchalar (venger xalq ertagi)	97
Oqil dehqon (shved xalq ertagi)	99
Kaltafahm boy (buryat xalq ertagi)	101
Aldar ko'saning savdosi (qozoq xalq ertagi)	103
Olijanob dehqonning hadyasi (koreys xalq ertagi)	105

Birovga choh qazisang o'zing tushasan (tojik xalq ertagi)	107
Quyoning fil bilan kitni yengani (arab xalq ertagi)	111
Jek tanbal (ingliz xalq ertagi)	114
Uddaburon batrak (latish xalq ertagi)	117
Ehtiyoj (bolgar xalq ertagi)	120
Oqila qiz (uygur xalq ertagi)	122
Ezgu maslahat (fin xalq ertagi)	124
Sher bilan sichqon (kurd xalq ertagi)	129
Minnardor tulki (turk xalq ertagi)	131
Eng mohir lofchi (yapon xalq ertagi)	138

Adabiy-badiy nashr

JAHON XALQLARI ERTAKLARI

Qanoati chumoli

Muharrir: Nurbek TOSHNINYOZ
Badiy muharrir: Bahridin BOZOROV
Texnik muharrir: Alimardon AQLLOV
Sahifalovchi: Imomjon OSAROV
Musahhih: Otabek BOQIYEV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 15.005.2015-y.

Bosishga ruxsat etildi: 24.05.2016-y.

Gazeta qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 $\frac{1}{32}$.

Schoolbook garnituras. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 5,58. Shartli b.t.: 7,56.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma №310.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^a-mayze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.